

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA  
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI  
TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI**

**“MOLIYA-IQTISOD” FAKULTETI**

**“MOLIYA” KAFEDRASI**

**Usmonova Nargiza Toir qizi**

**“Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida mahalliy budjet  
xarajatlarini samarali ijrosini ta`minlash muammolari”  
mavzusidagi**

**BITIRUV MALAKAVIY ISHI**

**“HIMOYAGA RUXSAT ETILDI”**

**“Moliya” kafedrasi mudiri**

**\_\_\_\_\_ K.U.Sharifxodjayeva**

**“ \_\_\_\_\_ ” \_\_\_\_\_ 2016-yil**

**Ilmiy rahbar:**

**o'q. N.G'.Xidirov**

**TOSHKENT – 2016**

## MUNDARIJA

|                                                                                                                                                                              |           |
|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----------|
| <b>KIRISH.....</b>                                                                                                                                                           | <b>3</b>  |
| <b>1 BOB MAHALLIY BUDJET XARAJATLARINING SAMARALI<br/>IJROSINI TA`MINLASHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI...</b>                                                                  | <b>7</b>  |
| <b>1.1.</b> Mahalliy budjetlarning mazmun-mohiyati.....                                                                                                                      | 7         |
| <b>1.2.</b> Mahalliy budjetlar xarajatlari samarali ijrosini ta`minlashda<br>g`aznachilik tizimini tutgan o`rni.....                                                         | 14        |
| <b>1-bob bo`yicha xulosalar.....</b>                                                                                                                                         | <b>21</b> |
| <b>2 BOB IQTISODIYOTNI MODERNIZATSIYALASH SHAROITIDA<br/>MAHALLIY BUDJETLAR XARAJATLARI VA ULARNING<br/>SAMARALI IJROSINI TA`MINLASHNING HOZIRGI HOLAT<br/>TAHLILI .....</b> | <b>22</b> |
| <b>2.2.</b> Mahalliy budjetlar xarajatlari ijrosining amaldagi holatini<br>tahlili.....                                                                                      | 22        |
| <b>2.1.</b> Mahalliy budjetlar xarajatlari ijrosida g`aznachilik tizimini hozirgi<br>holati tahlili .....                                                                    | 28        |
| <b>2-bob bo`yicha xulosalar.....</b>                                                                                                                                         | <b>41</b> |
| <b>3 BOB MAHALLIY BUDJETLARNING XARAJATLARINI SAMARALI<br/>IJROSINI TA`MINLASHNING TAKOMILLASHTIRISH<br/>MASALALARI.....</b>                                                 | <b>42</b> |
| <b>3.1.</b> Mahalliy budjet xarajatlarini samarali ijrosini ta`minlashdagi<br>muammolar va ularning yechimlari.....                                                          | 42        |
| <b>3.2.</b> Mahalliy budjet xarajatlari ijrosinini tashkil etishning xorijiy davlatlar<br>tajribasi.....                                                                     | 47        |
| <b>3-bob bo`yicha xulosalar.....</b>                                                                                                                                         | <b>52</b> |
| <b>XULOSA.....</b>                                                                                                                                                           | <b>53</b> |
| <b>FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YHATI.....</b>                                                                                                                               | <b>55</b> |

## KIRISH

**Mavzuning dolzarbligi.** Iqtisodiyotning modernizatsiyalash sharoitida mamlakatimizda hududlarining ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan rivojlanishi jadallashib bormoqda. Iqtisodiyotning jadal rivojlanishi, bir tomondan, aholi turmush - farovonligini yanada yuksaltirish uchun qulay shart-sharoitlarni vujudga keltirsa, boshqa tomondan esa qator o`ziga xos ijtimoiy muammolarni hal etishni ham talab etadi. Ma`lumki, ijtimoiy yo`naltirilgan bozor iqtisodiyoti mamlakatdagi ijtimoiy-iqtisodiy masalalarning hal etilishida davlat boshqaruvi quyi bo`g`inlarining roli jiddiy ravishda yuqori ekanligi bilan harakterlanadi. O`zbekistonda olib borilayotgan tub iqtisodiy islohotlarning bosh maqsadi xalqimiz uchun munosib turmush sharoitlarini ta`minlash, bunga esa zamonaviy iqtisodiyotni barpo etish orqali erishishdan iboratdir.

Mamlakatimizning ijtimoiy va iqtisodiy sohalarida izchil islohotlarni amalga oshirish, ishlab chiqarishni modernizatsiyalash va diversifikatsiyalash hisobiga yuqori o`sish sur`atlari ta`minlanmoqda. Ushbu keng ko`lamli islohotlarni amalga oshirish va pirovard natijada erishilayotgan natijalarni ta`minlashda mahalliy byudjetlarning o`rni va ahamiyati g`oyat yuqoridir.

Prezidentimiz I.Karimov o`z ma`ruzalarida ta`kidlaganlaridek “Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi hamon davom etayotganiga qaramasdan, hisobot yilida yalpi ichki mahsulot 8 foiz, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 8 foiz, qishloq xo`jaligi mahsulotlari qariyb 7 foiz, qurilish-montaj ishlari hajmi salkam 18 foizga oshdi.

Yillik byudjet yalpi ichki mahsulotga nisbatan 0,1 foiz profitsit bilan bajarildi. Inflyatsiya darajasi 5,6 foizni tashkil qildi, ya`ni prognoz ko`rsatkichlari doirasida bo`ldi.

2015-yilda iqtisodiyotimizni yuqori sur`atlar bilan barqaror rivojlantirishga erishganimiz aholi daromadlarini yanada ko`paytirish, odamlarimizning hayot darajasi va sifatini oshirish uchun mustahkam asos yaratdi.

Byudjet tashkilotlari xodimlarining ish haqi, pensiya va stipendiyalar 21,9 foizga, aholi jon boshiga jami real daromadlar esa 9,6 foizga oshdi”<sup>1</sup>.

Ayniqsa hududlarimizda amalga oshirilayotgan keng ko`lamli ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish, Respublikamizni ijtimoiy-itisodiy rivojlantirishning vazifalari hisoblanuvchi masalalarning kun tartibidagi dolzarb masala sifatida maydonga olib chiqilishi mahalliy davlat hokimiyati organlarining oldiga yangi qator vazifalarni qo`ymoqda.

Bu albatta ularning ixtiyorida shakllantiriladigan moliyaviy resurslarni takomillashtirishni va qolaversa, mahalliy byudjetini shakllantirish, xarajatlarni samarali ijrosini ta`minlashga yo`naltirilgan islohotlarni chuqurlashtirishni talab qilmoqda.

Hozirgi iqsodiyotni modernizatsiyalash sharoitda mahalliy byudjetlar xarajatlari samarali ijrosini olib borish, uning maqsadli sarflanishini ta`minlash bilan bog`liq bir qator kuzatilayotgan muammolar mahalliy byudjetlar xarajatlarining samaradorligini oshirishga qaratilgan islohotlarni yanada chuqurlashtirishni talab qilmoqda. Bu o`z navbatida tanlangan ushbu bitiruv malakaviy ishi mavzusini bugungi kundagi dolzarb ahamiyat kasb etishini bildiradi.

**Bitiruv malakaviy ishining maqsadi va vazifalari.** Bitiruv malakaviy ishining maqsadi mahalliy byudjetlar xarajatlarini samarali ijrosini ta`minlash bo`yicha dolzarb muammolarni tadqiq etishdir. Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilangandir:

- mahalliy byudjet xarajatlarining nazariy asoslarini o`rganib chiqish;
- mahalliy byudjet xarajatlarini samarali ijrosini ta`minlashni hozirgi holati tahlilini o`rganish;
- g`aznachilik tizimi sharoitida mahalliy byudjetlar xarajatlari ijrosining amaldagi holatini tahlilini o`rganish;

---

<sup>1</sup>O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning mamlakatimizni 2015-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2016-yilga mo`ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo`nalishlariga bag`ishlangan Vazirlar Mahkamasi majlisidagi ma`ruzasi. // “Xalq so`zi”, 16.01.2016.

- mahalliy byudjetlar xarajatlarini samarali ijrosini ta'minlash yo`nalishlarini o`rganib chiqish;

- mahalliy byudjet xarajatlari samarali ijrosinini tashkil etishning xorijiy davlatlar tajribasini o`rganish.

**Bititruv malakaviy ishida qo`llanilgan uslublarning qisqacha tavsifi.** Ilmiy tadqiqotda ilmiy bilish, taqqoslash, kuzatish va iqtisodiy-statistik tahlil usullaridan foydalanildi.

**Tadqiqotning ob`ekti va predmeti.** Tadqiqot ob`ekti qilib, Respublika moliya bo`limi mahalliy byudjetlari tanlab olindi.

Tadqiqot predmeti bo`lib, O`zbekiston Respublikasi mahalliy byudjet xarajatlarini samarali ijrosini ta'minlashdagi muammolarni yechimlariga qaratilgan iqtisodiy munosabatlar hisoblanadi.

**Tadqiqotning nazariy va amaliy ahamiyati.** Ilmiy tadqiqot ishining nazariy ahamiyati iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida mamlakat byudjet tizimida mahalliy byudjet xarajatlalarini samarali ijrosini ta'minlash nazariyasi orqali mavjud muammolarga yechimlar topish.

**Bitiruv malakaviy ishining ilmiy yangiligi quyidagilar bo`lib hisoblanadi:**

- Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida mahalliy byudjetlarning ahamiyati o`rganib chiqilgan;

- Mahalliy byudjet xarajatlarini samarali ijrosini ta'minlashda g`aznachilik tizimining o`rni haqida fikrlar bildirilgan;

- Mahalliy byudjet xarajatlarini samarali ijrosini ta'minlashning xorij tajribasi o`rganilgan;

- Mahalliy byudjetlar xarajatlari ijrosining amaldagi holati tahlil qilingan;

- Mahalliy byudjetlar xarajatlari ijrosida g`aznachilik tizimini hozirgi holati tahlil qilingan;

- Mahalliy byudjet xarajatlarini samarali ijrosini ta'minlash bo'yicha mavjud muammolar yechimlari ko`rsatib o`tilgan.

**Bitiruv malakaviy ishi tarkibi va hajmi.** Jami 53 betni tashkil etgan bitiruv malakaviy ishi tarkibiy jihatdan kirish qismi, uch bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro`yxatidan tashkil topgan bo`lib, unda 8 ta rasm va 4 ta jadval keltirilgan.

# **1-BOB. MAHALLIY BYUDJET XARAJATLARINI SAMARALI IJROSINI TA`MINLASHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI**

## **1.1. Mahalliy byudjetlarning mazmun-mohiyati va ahamiyati**

Mahalliy byudjetlar O`zbekiston Respublikasi davlat byudjetida muhim tarkibiy qismni tashkil etadi va mahalliy hokimiyatlarning faoliyat ko`rsatishlarida moliyaviy manba bo`lib hisoblanadi. Mahalliy byudjetlar tizimi mahalliy talab-ehhtiyojlarni to`laroq, qondirishni hamda davlatning markazlashgan tartibda amalga oshiradigan tadbirlarining bajarilishi bilan chambarchas bog`langan holda ijro etishga imkon yaratib beradi. Mahalliy hokimiyat organlariga mahalliy byudjet daromadlarining ko`payishi va resurslarning tejamkorlik bilan sarflanishi vazifasi yuklatiladi. Bu borada Prezidentimiz I.A.Karimov “Byudjetning daromad qismini kengaytirishning asosini iqtisodiy vaziyatni umumiy ravishda sog`lomlashtirish tashkil etishi lozim”<sup>2</sup> deya o`z fikrlarini bildirgan. Iqtisodiyot va madaniyatning yuksalish sur`atlari to`g`ridan-to`g`ri mahalliy xo`jalik zaxiralarini safarbar qilish, mablag`larni tejab ishlatish borasidagi ishlarni tashkil etish bilan bevosita bog`liq bo`ladi. Bu esa o`z navbatida O`zbekiston Respublikasi davlat byudjetining ijrosini ta`minlashga yordam beradi.

Mahalliy byudjetlar orqali mahalliy hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan rivojlantirishni moliyaviy manbalar bilan ta`minlab boriladi.

Mahalliy byudjetlar orqali xalq ta`limi, sog`liqni saqlash, madaniyat va sport muasassalarini, mahalliy hokimiyat boshqaruv organlarini, kam ta`minlangan oilalarga beriladigan nafaqalar moliyalashtirib boriladi.

Mahalliy byudjetlar aholini ijtimoiy himoya qilish borasida davlatning olib borayotgan siyosatining joylardagi asosiy tayanchi hisoblanadi. Qariyb aholini ijtimoiy himoya qilish xarajatlarining 100 foizi mahalliy byudjetlar tomonidan moliyalashtiriladi. O`zbekiston Respublikasi davlatining mustaqillikka erishishi va ijtimoiy yo`naltirilgan bozor iqtisodiyoti sari yo`l tutishi davrida mahalliy byudjetlarning Respublikani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi roli yanada oshdi. Iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishda ushbu masalalarga katta e`tibor qaratildi.


---

<sup>2</sup> I.Karimov: “O`zbekiston: milliy istiqloq, iqtisod, siyosat, mafkura”. T.: “O`zbekiston”, 1996, 128-bet.

Mahalliy byudjetlar daromadlarining shakllanishidagi ushbu yo`nalishni O`zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov shunday ta`kidlagan edi: “Davlat byudjeti daromadlarining katta qismini joylarga berish, mahalliy byudjetlarni mustahkamlash zarur. Bu asa mintaqalar mustaqilligini oshirish, ularning tashabbuskorligini, byudjetning ijrosidan manfaatdorligini va bu boradagi ma`suliyatini oshirishga imkon beradi. Bundan tashqari bu narsa mahalliy byudjetlarga tushumlarning yangi manbalarini qidirib topishga rag`batlantiradi, joylarda byudjet intizomini mustahkamlaydi”<sup>3</sup>

Yurtboshimizning so`zlaridan shu narsani ma`lumki, hududlarni iqtisodiy rivojlantirish, iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida yuksak natijalarga erishishda mahalliy byudjetlarning daromadlari muhim o`rin egallaydi.

Mahalliy byudjetlarning iqtisodiy mohiyatiga to`xtaladigan bo`lsak ularning mohiyati uning vazifalarida namoyon bo`ladi. (1-rasm).



**1-rasm. Mahalliy byudjetlarning vazifalari<sup>4</sup>**

Mahalliy byudjetlar umumdavlat iqtisodiy va ijtimoiy vazifalarini amalga oshirishda, birinchi navbatda davlat mablag`larini taqsimlash va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Bu mablag`lar tuman, shahar byudjetlarini o`z ichiga oluvchi mahalliy byudjetlar tizimi orqali o`tadi.

<sup>3</sup> I.Karimov: “O`zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo`lida”. T.: “O`zbekiston”, 1995, 129-bet.

<sup>4</sup> Qosimova G.A.: ‘Mahalliy budjetlarni tuzish va ijrosini ta`minlash’, o`quv qo`llanma. -T.: “Iqtisod-Moliya”, 2007, 159-bet.



Mahalliy byudjet – davlat byudjetining tegishli viloyat tuman, shahar pul mablag`lari jamg`armasini tashkil etuvchi bir qismi bo`lib, unda daromadlar manbalari va ulardan tushumlar miqdori, shuningdek moliya yili mobaynida aniq maqsadlar uchun ajratiladigan mablag`lar sarfi yo`nalishlari va miqdori nazarda tutiladi

Byudjet tizimi bog`inlari o`rtasida umumdavlat pul resurslarini taqsimlash asosida mahalliy byudjetlar mustaqilligi va ularni davlat tomonidan moliyaviy qo`llab-quvvatlash tamoyili yotadi. Ulardan kelib chiqqan holda mahalliy byudjetlar tartibga soluvchi daromad manbalari hisobiga shakllantiriladi.

Mahalliy byudjetlar davlat byudjeti tizimida asosiy o`rinni egallaydi. U O`zbekiston Respublikasi byudjet tizimining asosiy qismi sifatida o`zida 14 ta mustaqil byudjetni mujassamlashtiradi. Bular, Qoraqalpog`iston Respublikasi, Toshkent shahri va viloyatlar mahalliy byudjetlaridan iborat.

Mahalliy byudjetlar balanslangan daromadlar va xarajatlar tizimiga ega bo`lishi zarur, Mahalliy byudjetlarning haqiqatdagi taqchilligi bo`lishi mumkin emas.

Mahalliy byudjetlar uchun:

- 1) O`zbekiston Respublikasi qonunchiligida ko`zda tutilmagan manbalar hisobiga o`z byudjetlarini to`ldirish yoki maqsadli fondlar tashkil etish;
- 2) byudjet ssudalaridan tashqari boshqa har qanday qarz omillarini amalga oshirish;
- 3) byudjet qonunchiligida ko`zda tutilgan holatlarda o`z byudjet xarajatlarining tasdiqlangan ajratmalardan ortib ketishiga yo`l qo`yish;
- 4) boshqa shaxslar foydasiga moliyaviy kafolatlar va vasiylik xatlari berish;
- 5) yuridik va jismoniy shaxslarga byudjet ssudalarini berish taqiqlanadi.

Bundan tashqari boshqaruvning iqtisodiy usullari tizimida mahalliy byudjetlar asosiy o`rin tutadi. Ular alohida olingan hududning kompleks rivojlanishini ta`minlashda, eng maqbul hududiy qayta ishlab chiqarish nisbatlarini o`rnatishda va aholi turmush darajasini yaxshilashda faol rol o`ynaydilar.

Boshqa iqtisodiy kategoriyalar singari mahalliy byudjetlar ham davlat hokimiyati organlari tomonidan ijtimoiy-iqtisodiy masalalarni xalq etish uchun foydalaniladi.

Mahalliy byudjetlar yangi byudjet tuzilishi sharoitlarida byudjetlararo munosabatlarni ta'minlovchi o'ziga xos iqtisodiy kategoriyadir hamda muayyan hududning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta'minlash maqsadida mahalliy hokimiyat organlari tomonidan tashkil etiladigan pul mablag'lari fondlarining shakllantirilishi, taqsimlanishi, ishlatilishi bilan bog'liq iqtisodiy munosabatlarning muvofiqligini ham bildiradi.

Mahalliy byudjetlar boshqaruvning iqtisodiy usuli sifatida byudjet munosabatlarini qayta taqsimlash xarakteri bilan bog'liq o'ziga xos xususiyatga egadir. Hech qanday kategoriya moliyaviy resurslarni shunchalik ko'p qirrali va ko'p darajali qayta taqsimlashda mahalliy byudjetlar tizimi kabi ishtirok etmaydi. Mahalliy byudjetlar tizimi orqali hududdagi ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarda byudjet dastaklarining ta'sir etish amaliyotini va ko'lamlarini belgilovchi xalq xo'jaligi tarmoqlari, hududlar, ishlab chiqarish va noishlab chiqarish sohalari, aholining turli qatlamlari o'rtasida mablag'lar taqsimoti amalga oshiriladi.

Mahalliy byudjetlar daromad bazalarini mustahkamlashda ular ixtiyoriga berilgan mahalliy soliqlar va yig'imlar bo'yicha tadbirlar muhim o'rin tutadi. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, mahalliy byudjetlar mahalliy soliqlar va yig'imlarni tashkil etish va boshqarishda mustaqil bo'lsalarda, Moliya Vazirligi tomonidan ishlab chiqilgan tegishli me'yorlar doirasida faoliyat yuritadilar. Mahalliy byudjetlar (respublikamiz misolida) amaliyotidagi muhim xususiyat byudjet kodeksida qonunda belgilanganidek, mahalliy byudjetlar taqchilligiga yo'l qo'yilmasligidir. Davlat moliya siyosatida mahalliy byudjetlar daromadlari va xarajatlarining balansligi respublika byudjeti subsidiyalari orqali kafolatlanmoqda.

Mahalliy byudjetlarga respublika byudjetidan beriladigan ajratmalar iqtisodiy mustaqillik darajasiga u qadar salbiy ta'sir ko'rsatmaydi. Uning ko'lami va ta'sir doirasi donor hududlar yoki repitsient hududlar imkoniyatlariga bog'liq.

Hozirgi kundagi byudjetlar oldidagi asosiy vazifa byudjet daromadlarini manbasini yaratish va uni ta'minlash hisoblanadi. Mahalliy byudjetlarning daromadlar manbasini mustahkamlash uchun hozirgi kunda ham bizda iqtisodiy islohotlar olib borilmoqda. Bu jarayon davom etishi muqarardir. Chunki nafaqat endigina bozor munosabatlariga asoslangan iqtisodiy munosabatlarni shakllantirayotgan O'zbekiston iqtisodiyotida balki har qanday davlatda soliq tizimi o'zgarib bordi, rivojlanadi va tinimsiz takomillashib boradi.

Mahalliy byudjetlar ko'p sonli bo'lib, byudjet tizimida alohida ahamiyat kasb etadi. Ularni berish obodonchilik, xalq farovonligi va madaniyatini o'stirishda ahamiyati kattadir. Chunki qabul qilingan farmon va ko'rsatmalar mahalliy byudjetlar orqali ijro etiladi. Bu mahalliy hokimiyatlarning asosiy funksiyalarini belgilab beradi. Aholi uchun qilingan asosiy xarajatlar mahalliy byudjetlar orqali o'tadi. Shu sababli ular aholiga yaqin. Ular istak va xohishlar bilan hisoblashishga majbur bo'ladilar.


Mahalliy byudjet mablag'lari asosan maorifga, sog'liqni saqlash, ijtimoiy ta'minotga, madaniyatga sohasiga xarajatlar qilinadi. Bu xarajatlar smeta asosida rejalashtiriladi, moliyalashtiriladi (2-rasm). Hozirgi iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida mahalliy byudjetlarga e'tibor ko'paymoqda. Ularni qo'llab quvvatlashga harakat qilinmoqda.

Byudjet xarajatlari aniq turlarining xilma-xilligi esa, o'z navbatida, quyidagi omillarning mavjudligi bilan belgilanadi:

- ✓ mahalliy hududning iqtisodiy tabiati va funktsiyalari;
- ✓ mahalliy hududning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot darajasi;
- ✓ byudjetning milliy iqtisodiyot bilan bog'langanligi;
- ✓ iqtisodiy munosabatlarning rivojlanganlik darajasi;

Mahalliy byudjet mablag'larining asosiy qismi ijtimoiy-madaniy tadbirlarga va aholini ijtimoiy himoyalash tadbirlariga yo'naltiriladi. Mahalliy byudjet mablag'larning egasi sifatida amaldagi me'yoriy hujjatlarga asoslanib, umumiy hajmi byudjet qonunchiligida belgilangan miqdorda pul mablag'larini ajratadi. Mahalliy byudjet xarajatlariga mablag'lar ajratish davlat hokimiyati, davlat

boshqaruv organlari, moliya-kredit idoralari tizimi orqali tegishli mablag'larga ehtiyoj sezilgan paytdan (moliya yilidan) boshlab ularni sarf xarajatlar qilgunga qadar bo'lgan butun davr mobaynida yuz beradi va bunda mahalliy byudjet xarajatlari vujudga keladi.



**2-rasm. Mahalliy byudjet xarajatlari tarkibi ( maqsadiga ko`ra)<sup>5</sup>**

<sup>5</sup>2013-yil 26-dekabrda qabul qilingan O`zbekiston Respublikasining Budjet kodeksiga asosan tayyorlangan.

Mahalliy byudjetlar ob`ektiv iqtisodiy kategoriya bo`lib, ikki tomonlama xususiyatga ega:

- u iqtisodiyot tarmoqlarini moliyaviy ta`minlashga qaratilgan xarajatlardan iborat;
- bu xarajatlar korxonalarning daromadidan tashkil topadi.

Rivojlangan mamlakatlarda mahalliy byudjet mustaqil ravishda mahalliy soliqlar va yig`imlar hisobiga shakllantiriladi. Bizning respublikamizda ham mahalliy byudjet daromadlarini mahalliy soliqlar va yig`imlar tashkil etadi. Mahalliy byudjetlar umumdavlat iqtisodiy va ijtimoiy vazifalarini amalga oshirishda, birinchi navbatda, ijtimoiy infrastrukturani saqlash va rivojlantirishga davlat mablag`larini taqsimlashda alohida ahamiyatga ega.

Qoraqalpog`iston Respublikasi byudjeti va mahalliy byudjetlardan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda quyidagilarga mo`ljallangan xarajatlar moliyalashtiriladi.

Respublikamizda bozor iqtisodiyotiga o`tishning dastlabki davrida ham, islohotlarning hozirgi bosqichida ham aholining daromadlarini hisobga olish va tibbiy xizmatga bo`lgan talabni qondirishga ijtimoiy himoyaning bir turi sifatida qarashimizga to`g`ri keladi. Sog`liqni saqlash tizimini rivojlantirish va bu sohada faoliyat ko`rsatayotgan xodimlarni o`z vaqtida va to`liq moliyaviy ta`minlash zarurdir.

Respublikamizda byudjet tizimida olib borilayotgan o`zgarishlarning markazida mahalliy byudjet daromadlarini oshirish, mahalliy byudjet imkoniyatlarini kengaytirish hamda mahalliy byudjetlardan moliyalashtiriladigan iqtisodiy-ijtimoiy soha xarajatlarini o`z vaqtida moliyalashtirish masalalari turadi.

Ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy qo`llab-quvvatlash xarajatlari o`z tarkibiga maorif, sog`liqni saqlash, madaniyat va sport, fan, ijtimoiy ta`minot, aholi uchun ijtimoiy ahamiyat kasb etgan xizmatlar baholaridagi farqlarni byudjetdan qoplash va oilalarga ijtimoiy nafaqalarni oladi. Davlatning ijtimoiy funksiyasini o`zida aks ettirib, bu guruhdagi byudjetning xarajatlari xalq ta`limi tizimini rivojlantirish va takomillashtirishga, fan va madaniyatni moliyalashtirishga, aholining tibbiy

xizmatga bo'lgan talabini (ehtiyojini) qondirishga, ijtimoiy sug'urta va ijtimoiy ta'minotni amalga oshirishga keng yo'l ochib beradi.


### 1.2. Mahalliy byudjetlar xarajatlari smarali ijrosini ta'minlashda g'aznachilik tizimini tutgan o'rni

O'zbekiston iqtisodiy va ijtimoiy islohotlarni amalga oshirayotgan davrda mahalliy byudjetlarning Respublikani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi roli yanada oshib bormoqda. Davlat byudjeti xarajatlari oxirgi yillarda o'sib boryapti. Huddi shuningdek, mahalliy byudjet xarajatlarining davlat byudjeti xarajatlaridagi salmog'iga nisbatan ko'proq oshyapti.

Buni quyidagi rasmdagi ma'lumotda ko'rishimiz mumkin.(3-rasmga qarang).

Masalan, Davlat byudjeti xarajatlarida mahalliy byudjetlar salmog'i 2010-yilda 58,2 foizni tashkil qilgan bo'lsa, 2013-yilda 53,9 foizni tashkil etmoqda.

Demak bu keltirilgan ma'lumotlardan shuni bilish mumkinki, mahalliy byudjetlar davlat byudjetida alohida o'rinni egallagan holda mavjud bo'lgan muammolarni yechishga bevosita yordam beradi.



3-rasm. Mahalliy byudjetlarning davlat byudjetidagi salmog'i (%da)<sup>6</sup>

<sup>6</sup> O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi ma'lumotlari asosida talaba tomonidan tayyorlangan

Mamlakatimizda olib borilayotgan keng qamrovli islohotlar byudjet moliya sohasida ham mustaqillik yillaridan boshlab uzluksiz takomillashtirilib kelinmoqda. Shunday islohotlarning biri bo'lib, mamlakatimiz byudjet kassa ijrosining G'aznachilik tizimiga o'tishi hisoblanadi. Byudjet ijrosining G'aznachilik tizimiga o'tishi moliya byudjet sohasida mamlakatimizda juda katta yutuqlarga erishilib kelinmoqda. Mahalliy byudjetlardan O'zbekiston Respublikasining Byudjet kodeksi bilan belgilangan xarajatlar amalga oshiriladi. Mahalliy byudjet xarajatlari tasdiqlangan byudjet asosida yagona g'azna hisobvarog'ida mavjud qoldiq doirasida amalga oshiriladi. G'azna ijrosi bilan qamrab olinmagan byudjetdan mablag' oluvchilarni moliyalashtirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi tomonidan taqdim etilgan to'lov topshiriqnomalari "to'lov maqsadi"da xarajatlar bo'limi, kichik bo'limi, bob hamda qaysi oy uchun moliyalashtirilganligi ko'rsatiladi. G'azna ijrosi bilan qamrab olinmagan byudjetdan mablag' oluvchilarga mahalliy byudjetdan mablag'lar belgilangan limitdan ortiqcha yoki noto'g'ri o'tkazilgan hollarda, ushbu ortiqcha yoki noto'g'ri o'tkazilgan mablag'lar byudjet tashkilotining to'lov topshiriqnomasiga yoki O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan qo'yilgan inkasso topshiriqnomasiga asosan respublika byudjetiga qaytarilishi lozim. G'azna ijrosi bilan qamrab olinmagan byudjetdan mablag' oluvchilar tomonidan taqdim etilgan to'lov topshiriqnomalari ularning hisobvaraqlarida mablag'lar yetarli bo'lgan hollarda bank tomonidan ijro uchun qabul qilinadi.


Mamlakatimizda byudjet ijrosinining g'aznachilik tizimi Byudjet Kodeksiga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Davlat byudjetining g'azna ijrosi tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2007-yil 28-fevraldagi PQ-594-son qaroriga muvofiq ishlab chiqilgan hamda O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi G'aznachiligining asosiy vazifalari, funksiyalari, vakolatlari va javob-garligini belgilaydi. G'aznachilik o'zining hududiy bo'linmalari bilan birgalikda Davlat byudjetining g'azna ijrosini amalga oshiradigan maxsus vakolatli moliya organi hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining G'aznachiligi tizimiga bevosita unga bo'ysunadigan Qoraqalpog'iston

Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri G`aznachilik boshqarmalari hamda tumanlar (shaharlar) G`aznachilik bo`limlari kiradi. G`aznachilik o`z faoliyatida O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga, O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlariga, O`zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlariga, mazkur Nizomga hamda o`z faoliyatiga tegishli bo`lgan boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga amal qiladi. G`aznachilik o`z faoliyatini davlat boshqaruvining boshqa organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari, O`zbekiston Respublikasi Markaziy banki, tijorat banklari, boshqa tashkilotlar bilan o`zaro hamkorlikda bevosita va o`zining hududiy bo`linmalari orqali amalga oshiradi. G`aznachilik faoliyatini moliyalashtirish respublika byudjeti mablag`lari hisobiga amalga oshiriladi. G`aznachilik, Qoraqalpog`iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri G`aznachilik boshqarmalari hamda tumanlar (shaharlar) G`aznachilik bo`limlari O`zbekiston Respublikasi Davlat gerbi tasviri tushirilgan va o`z nomi yozilgan muhrga ega bo`ladi. Qoraqalpog`iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri G`aznachilik boshqarmalari yuridik shaxslar hisoblanadi. Byudjetdan mablag` oluvchilar moliya organlarida o`tkazilgan shartnomalar bo`yicha yetkazib beriladigan tovarlar (ishlar xizmatlar) xarajatlarini hamda bo`nak to`lovlarni to`lash uchun ertangi kun to`loviga bir kun oldin yetkazib, byudjetdan mablag` oluvchi va yetkazib beruvchiga bitta bank muassasasi tomonidan xizmat ko`rsatilsa, to`rt nusxada, byudjetdan mablag` oluvchi va tovarlarni yetkazib beruvchiga turli bank muassasalari tomonidan xizmat ko`rsatilsa, uch nusxada o`rnatilgan tartibda rasmiylashtirilgan to`lov topshiriqnomalarini g`aznachilik boshqarmasiga taqdim etadi. Shartnoma tuzilgan paytdan boshlab kuchga kiradi va taraflar uchun majburiy bo`lib qoladi. Taraflar o`zlari tuzgan shartnomaning shartlarini ularning shartnoma tuzishidan oldin vujudga kelgan munosabatlariga nisbatan qo`llaniladi deb belgilab qo`yishga haqlidirlar. Qonunda yoki shartnomada shartnomaning amal qilish muddati tugashi taraflarning shartnoma bo`yicha majburiyatlari bekor bo`lishiga olib keladi, deb belgilanishi mumkin.



Bunday shart yozib qo'yilmaganda taraflar majburiyatni bajarishining shartnomada belgilab qo'yilgan oxirgi muddatigacha amal qiladi, deb hisoblanadi. Shartnomaning amal qilish muddati tugashi taraflarni uni buzganlik uchun javobgarlikdan ozod qilmaydi.

Quyidagi 4-rasmda Mahalliy byudjetlarda G'aznachilik orqali xarajatlar ijrosining (to'lovining) amalga oshirilishi ko'rsatilgan.



#### 4-rasm. Mahalliy byudjetlarda byudjet xarajatlari ijrosi ketma-ketligi<sup>7</sup>

Quyidagilar G'aznachilikning mahalliy byudjetlar ijrosida asosiy vazifalari hisoblanadi:

- mahalliy byudjetining kassa ijrosi, jumladan tushadigan daromadlarni turli darajadagi byudjetlar o'rtasida taqsimlash, byudjetdan mablag' oluvchilarning xarajatlar smetalari ijrosi va Davlat byudjeti ijrosi to'g'risida hisobot tuzish;
- mahalliy byudjet mablag'larini yagona g'aznachilik hisob raqami, shuningdek tegishli byudjetlar daromadlari va xarajatlari o'rtasidagi kassa

<sup>7</sup> Davlat budjetining g'azna ijrosi. Normativ-huquqiy hujjatlar to'plami. T.: "KO'HI-NUR" MChJ., 2006, 49-bet.

uzilishlarining oldini olishni ta'minlaydigan hududiy g'aznachilik hisob raqamlarini joriy etish orqali boshqarish;

- mahalliy byudjet tashkilotlarining tovarlar yetkazib beruvchilar (ishlarni bajaruvchilar, xizmatlar ko'rsatuvchilar) bilan shartnomalarini, shuningdek Davlat byudjeti mablag'lari hisobidan kapital qurilish bo'yicha buyurtmachilarning shartnomalari xarajatlar smetasida ko'rsatilgan summalar va maqsadlarga qat'iy muvofiq ravishda tuzilishi ustidan qattiq nazorat o'rnatish asosida mazkur shartnomalarni majburiy ro'yxatdan o'tkazish tartibini joriy etish orqali byudjet tashkilotlarining maqsadga nomuvofiq, asossiz xarajatlarning oldini olish;

- byudjet tashkilotlarini, shu jumladan, mudofaa va xavfsizlik tuzilmalarini moliyalashtirishga yo'naltiriladigan byudjet mablag'laridan foydalanishni maqbullashtirish yuzasidan monitoring olib borish, bunda ular tomonidan tuzilayotgan shartnomalarning sifati ta'minlanishini, ularning maqsadga muvofiqligi va narx-navo yechimini nazarda tutish hamda qoidaga ko'ra, vositachilik xizmatlaridan voz kechish.

Davlat xaridlari bo'yicha axborot bazasini yaratish va doimiy ravishda yangilab borish, davlat xaridlarini amalga oshirishda narxni shakllantirish jarayonini nazorat qilish, xarajatlar smetasi va ro'yxatga olingan shartnomalarda nazarda tutilgan qat'iy summalar doirasida tovarlar yetkazib beruvchilarning bevosita hisobraqamlariga byudjetdan mablag' oluvchilar nomidan va ularning topshirig'i bo'yicha to'lovlarni amalga oshirish orqali to'lov intizomiga so'zsiz rioya etilishi ustidan ta'sirchan nazoratni ta'minlash, mahalliy byudjet g'azna ijrosining bugalterlik hisobi va hisobotini yuritish, mahalliy byudjet ijrosi haqida axborotlarni to'plash, qayta ishlash va tahlil qilishda g'aznachilik tizimining o'rni beqiyosdir.

G'aznachilik tizimi o'ziga yuklangan vazifalarga muvofiq quyidagi funksiyalarni bajaradi:

- mahalliy byudjet tashkilotlari xodimlariga ish haqi va unga tenglashtirilgan boshqa to'lovlar, shuningdek qonun hujjatlariga muvofiq byudjet

tashkilotlari tomonidan naqd pul mablag`lari bilan to`lanadigan boshqa to`lovlarni to`lash uchun G`aznachilikning bank hisob raqamlariga mablag`lar o`tkazadi;

- mahalliy byudjetda ular uchun mablag`lar nazarda tutilgan yuridik va jismoniy shaxslarning bank hisob raqamlariga sudning qarori bo`yicha yagona g`aznachilik hisob raqamidan yoki G`aznachilikning boshqa hisob raqamlaridan mablag`lar o`tkazadi, shuningdek qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda davlat organlari yoki ushbu organlar mansabdor shaxslarining noqonuniy hatti-harakatlari yoki harakatsizligi natijasida fuqarolarga yoki yuridik shaxslarga yetkazilgan zararni qoplash uchun mablag`lar o`tkazadi;

- O`zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga har kunlik asosida yagona g`aznachilik hisobraqamida va hududiy g`aznachilik hisob raqamlarida mablag`larning harakati to`g`risidagi axborotni elektron shaklda taqdim etadi, byudjetdan mablag` oluvchilarga ular uchun G`aznachilikda yoki uning hududiy bo`linmalarida ochilgan shaxsiy hisob raqamlaridan ko`chirmalar, ularning xarajatlarini qoplashga byudjet mablag`lari o`tkazilganligini tasdiqlaydigan to`lov hujjatlari va boshqa hujjatlarni taqdim etadi, manbalar bo`yicha tegishli byudjetlar daromadlari tushumi hisobini yuritadi;

- normativ-huquqiy hujjatlarni va metodologik materiallarni, shu jumladan, G`aznachilik hamda uning hududiy bo`linmalari tomonidan amalga oshiriladigan operatsiyalarni maqbullashtirish, davlat byudjeti ijrosi to`g`risidagi bugalteriya hisobini va hisobotlarni takomillashtirish masalalari bo`yicha normativ-huquqiy hujjatlarni va metodologik materiallarni ishlab chiqishda qatnashadi.

Mahalliy byudjet tashkilotlari byudjetdan tashqari mablag`lar bo`yicha yuridik va moliyaviy majburiyatlarning qabul qilinishi, shuningdek byudjetdan tashqari mablag`larning kassa xarajatlari kelib tushgan byudjetdan tashqari mablag`lar doirasida amalga oshiriladi va byudjet mablag`lari kabi bir xil tartibda rasmiylashtiriladi. O`tgan yil uchun Davlat byudjetining g`azna ijrosi amalga oshiriladigan moliya yiliga qo`shimcha davr keyingi yilning yanvar oyi hisoblanadi. Qo`shimcha davrda moliya organlari, g`aznachilik bo`linmalari,

shuningdek byudjetdan mablag` oluvchilar tomonidan hisobot yili uchun Davlat byudjetining ijrosi bo`yicha quyidagi operatsiyalar amalga oshiriladi, jumladan:

- byudjetlararo hisob-kitoblarni tartibga solish;
- byudjetdan mablag` oluvchilarning o`tgan yil uchun kreditorlik qarzlarini to`lash;
- iqtisod qilingan mablag`lar summasini byudjet tashkilotlarining rivojlantirish jamg`armalariga o`tkazish;
- mahalliy byudjet ijrosi bo`yicha boshqa operatsiyalar.

Mahalliy byudjet tashkilotining rivojlantirish jamg`armasi mablag`lari yoki boshqa mavjud byudjetdan tashqari mablag`lari yetarli bo`lmaganda yoki umuman mavjud bo`lmagan taqdirda, joriy moliya yili xarajatlar smetasi hisobidan, moliya organining byudjet tashkilotining rivojlantirish jamg`armasi mablag`lari va boshqa byudjetdan tashqari mablag`lari yo`qligini tasdiqlovchi xulosasi, shuningdek kreditorlik qarzini to`lash uchun zarur bo`lgan mablag`lar joriy yilning xarajatlar smetasida nazarda tutilganligi to`g`risida moliya organi tomonidan g`aznachilik bo`linmasi xabardor qilingan taqdirda to`lab berilishi mumkin.

O`tgan yilning kreditorlik qarzlarini to`lab berish uchun byudjet tashkilotlari tomonidan ularga xizmat ko`rsatuvchi g`aznachilik bo`linmalariga quyidagi hujjatlar taqdim qilinadi:

- o`tgan yilda qabul qilingan va joriy yilda qabul qilinadigan yetkazib berish bo`yicha majburiyatlarni alohida ko`rsatgan holda kommunal xizmatlar ko`rsatish bo`yicha shartnomalar;
- o`tgan yil yakuni bo`yicha byudjetdan mablag` oluvchi va mahsulot yetkazib beruvchi o`rtasida tuzilgan solishtirma dalolatnoma.

Xulosa qilib aytganda, mahalliy byudjet xarajatlarini samarali ijrosini ta`minlashdagi muammolarni yechish, mablag`lardan maqsadli foydalanishini ta`minlashda g`aznachilik tizimini o`rni beqiyosdir.

## **1-bob bo'yicha xulosalar**

Mahalliy byudjetlar xarajatlarining maqsadli sarflanishining nazoratini kuchaytirish va pul oqimlarini samarali boshqarish hozirgi kunning muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Mahalliy byudjetlar xarajatlari ijrosini kuzatish, boshqaruv qarorlarini qabul qilishda qulaylik yaratish, byudjet mablag'larini maqsadsiz sarflanishdan himoyalash va byudjetni rivojlantirish hamda bashoratlash sifatini oshirish yo'lida muhim ishlar olib borilmoqda.

E'tibor beradigan bo'lsak, mahalliy byudjet xarajatlarini samarali ijrosini ta'minlash maqsadida Respublikamizda g'aznachilik tizimi yo'lga qo'yildi, bu esa quyidagi ijobiy natijalarga erishishga imkoniyat berdi:

- ✓ mahalliy byudjetlar moliyaviy resurslarining real hajmini va uning istiqbol ko'rsatkichlarini doimiy nazorat qilish;
- ✓ mahalliy moliyaning holati to'g'risidagi tezkor va muntazam ravishda axborotlarni yig'ish, ishlov berish va tahlil qilish;
- ✓ mahalliy byudjetlar xarajatlari kassa ijrosini har kungi aniqlashtirilgan monitoringini o'tkazish;
- ✓ tasdiqlangan byudjet mablag'lari doirasida byudjet tashkilotlarining tovarlar va xizmatlar yetkazib beruvchilar oldidagi majburiyatlarini qabul qilish bosqichida dastlabki nazoratni amalga oshirish;
- ✓ taqsimlovchilari tomonidan suiste'mol qilish va noto'g'ri ishlatishning oldini olish maqsadida joriy nazorat olib boorish;
- ✓ g'aznachilik tizimining bir pog'onasidan ikkinchi pog'onasiga pul mablag'lari o'tkazishni tezlashtirish orqali byudjet mablag'larini tezkor harakat qilinishini ta'minladi.

Mahalliy byudjetlar xarajatlari ijrosining samarali tashkil etishda nazoratning rolini oshirish katta ahamiyatga ega bo'lib, moliya organlari tomonidan mahalliy byudjetlar xarajatlarini o'z vaqtida va manzilli moliyalashtirish orqali mahalliy byudjet mablag'larini samarali ishlatilishini ta'minlash mumkin.

## **2-BOB. IQTISODIYOTNI MODERNIZATSIYALASH SHAROITIDA MAHALLIY BYUDJETLAR XARAJATLARI VA ULARNING SAMARALI IJROSINI TA`MINLASHNING HOZIRGI HOLAT TAHLILI**

### **2.1. Mahalliy byudjetlar xarajatlari ijrosining amaldagi holatini tahlili**

Mamlakatimizda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar natijasida mamlakatimizda mahalliy byudjet xarajatlari ijrosini ta`minlashni samarali tashkil etishda katta yutuqlarga erishilib kelinmoqda. Bu erishilayotgan yutuqlarda albatta mahalliy hududlarning moliyaviy sohadagi olib borayotgan ishlari katta ahamiyatga egadir. Hududning ijtimoiy-iqtisodiy holatini yaxshilashga qaratilgan sarf-xarajatlarning ya`ni mahalliy byudjet xarajatlarining manzilligi, kerakli miqdorlari o`z vaqtida kerakli joyga to`lanishi mahalliy hududning uzluksiz tarzda rivojlanishida katta ahamiyat kasb etadi.

Mamlakatimizda mahalliy byudjetlarga ajratilayotgan mablag`lar yildan-yilga oshib bormoqda. Xorijiy mamlakatlar tajribasidan ma`lumki, mahalliy byudjetning umumiy salmog`i 30% dan 60% gacha bo`lishi mumkin. Mahalliy byudjet xarajatlaridan oqilona foydalanish masalalarini hal etishda byudjet xarajatlarining iqtisodiy mohiyati, tarkibiy tuzilishi va ularning asosiy yo`nalishlari muhim ahamiyatga egadir.

Jamiyatning iqtisodiy hayotida ijtimoiy islohotlarni amalga oshirishda davlat rolining oshishi byudjet xarajatlarining turli-tuman ko`rinishlarda bo`lishini asoslaydi. Bu o`z navbatida bir qator omillar bilan bog`liqdir. Bular jumlasiga quyidagi asosiy omillarni ko`rsatish mumkin:

- ✓ davlatning funkionalari va geografik joylashishi;
- ✓ mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot darajasi;
- ✓ davlatning ma`muriy-hududiy tuzilishi;
- ✓ byudjet mablag`larini berishning shakllari.

Ushbu omillarni muvofiqlashtirish davlat rivojlanishining har bir bosqichida iqtisodiyot ehtiyojlari, iqtisodiyotni boshqarish darajasi va ko`rinishlariga mos keluvchi xarajatlar tizimini keltirib chiqaradi. Byudjet xarajatlarini ishlab chiqarish jarayoniga ta`sir etishiga ko`ra joriy va kapital byudjet xarajatlariga ajratiladi. Joriy

byudjet xarajatlari yuridik shaxslarga o'zlarini saqlash va kundalik ehtiyojlarini qoplash uchun beriladigan moliyaviy mablag'larni ifodalaydi.

Mahalliy byudjetlar byudjet qonunchiligiga ko'ra, balanslashgan daromadlar va xarajatlar tizimiga ega bo'lishlari zarur. Mahalliy byudjetlarda taqchillika yo'l qo'yilmaydi.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan so'ng davlatning moliya-soliq siyosatini muhim yo'nalishlaridan biri moliya tizimini va uning bo'g'inlarini isloh qilishdan iborat bo'ldi. Ushbu yo'nalishdagi muhim muammolardan biri – mahalliy byudjet xarajalarini samarali ijrosini ta'minlashdir. Shu ma'noda "Byudjet kodeksi"ni qabul qilinishi hozirgi kun talabi va muhim hayotiy ehtiyojdir. Ushbu qonun ma'lum ma'noda davlat byudjet siyosatining asoslarini, byudjet tizimi bo'g'inlarining hayot tarzini, byudjet-soliq aloqadorligidagi dialektik bog'liqlikning yangi jihatlarini ochib beruvchi me'yoriy-huquqiy asos sifatida baholash mumkin.

Mahalliy byudjet xarajatlarini tahlil qilishdan oldin byudjet xarajatlarning byudjet bo'g'inlari o'rtasida taqsimlanishini aniqlab olish lozim. Ko'plab xarajat vakolatlari boshqaruv organlarining ikki bo'g'ini – respublika va mahalliy boshqaruv organlari orasida bo'linadi. Bunda xarajatlar uchun aniq reglamentlash va chegaralangan javobgarlikning yo'qligi yangi tashkil qilinayotgan muassasalar byudjeti manbasini aniqlashda anglashilmovchilikka olib keladi, boshqaruv organlarining byudjet mablag'ini ishlatishdagi mas'uliyatini mavhumlashtirib, aholiga xizmat ko'rsatish sifatining pasayishiga olib keladi.

Ma'lumki, respublika byudjetidan mahalliy byudjetlarga ajratiladigan byudjet subvensiyalari va dotatsiyalari byudjet to'g'risidagi me'yoriy hujjatlarda belgilangan tartibda amalga oshiriladi. Bunday ajratmalar miqdori quyidagilarga bog'liq:

- hududlar moliyaviy holatiga, jumladan, ularni o'z daromad bazalarining yetarligiga
- ijtimoiy-iqtisodiy, ekologik, demografik va boshqa umumdavlat vazifalari va dasturlariga;

- hududlar bo'yicha tovar (ish, xizmat)lar qiymatidagi farqlarga;
- har qaysi hududlar aholisining soniga;
- ushbu hududda joylashgan tashkilotlarning byudjet ajratmalariga bo'lgan ehtiyojiga;
- hududlar o'rtasidagi moliyaviy nomutanosiblik (tafovut)ni bartaraf etish uchun hisobga olinadigan boshqa omillarga.

Mahalliy byudjetlar xarajatlariga qattiq byudjet cheklovlarini qo'llash bir vaqtning o'zida, soliq tushumlarining o'sishini ham hisobga olishi va yetarlicha byudjet mustahkamligi hamda sharoitga moslashuvchanlikni ham talab etadi.

Markaz va hududlar moliyaviy imkoniyatlarini muvofiqlashtirish jarayonida mahalliy byudjetlar xarajatlarining optimal taxmini aniqlanadiki, ushbu miqdor daromad bazasidan kelib chiqadi.

Mahalliy byudjet xarajatlarini yagona davlat me'yorlari asosida mahalliy byudjetning real daromadlari bilan bog'lanmagan holda rejalashtirish hozirgi vaqtda byudjetning xarajatlar qismini daromadlar qismidan sezilarli darajada ortib ketishiga olib kelmoqda. Shu boisdan ta'kidlash lozimki, bu kabi yagona davlat me'yorlarini hozirgi sharoitda qo'llash xarajat moddalari bo'yicha mahalliy byudjetlar xarajatlarini ongli tarzda qisqartirishni anglatadi va bu holat xarajat guruhlaridagi u yoki bu moddalar bo'yicha moliyalashtirish darajasining asoslanmagan tarzda keskin tebranishlariga olib keladi. Bundan tashqari byudjet xarajatlarining ijtimoiy maqbul va asoslangan davlat me'yorlari ma'lum ijtimoiy standartlarning ham qonuniy tarzda tasdiqlanishini talab etadiki, bu holat yaqin kelajakda yagona davlat me'yorlarini qo'llashning imkoniyatlari cheklanganligini yana bir bor tasdiqlaydi.

Mahalliy byudjet xarajatlarini ijro etish jarayonidagi "davlat zaruriyati" tufayli respublika byudjetidan mahalliy byudjetlar ixtiyoriga yoki mahalliy byudjetlardan respublika byudjetiga o'tkaziladigan xarajatlar o'zaro hisob-kitoblarga qo'yilmoqda.

Mahalliy byudjetlar xarajatlarini baholashning nisbatan asoslangan usuli ovqatlanish uchun xarajatlarning tibbiy me'yorlarini, ta'lim sohasida uslubiy



materiallar va bitta o'qituvchiga to'g'ri keladigan o'quvchi soni me'yorlarini, byudjet tashkilotlari uchun kommunal xizmatlari xarajatlari bo'yicha limitlarni va boshqalarni hisobga oluvchi yagona davlat me'yorlari asosida xarajatlarni moliyalashtirish maydonga chiqadi.

Quyidagi 1-jadvaldan ko'rishimiz mumkinki mahalliy byudjet xarajatlari 2011-yildan 2014-yillarda o'sish tendensiyasiga ega bo'lgan. 2011-yilda jami mahalliy byudjet xarajatlari 9667,9 mlrd.so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2014-yilda qariyb 17301,2 mlrd.so'm tashkil etgan.

#### 1-jadval

#### **O'zbekiston Respublikasi mahalliy byudjet xarajatlarining 2011-2014 yillardagi Dalat byudjeti xarajatlaridagi salmog'i (mlrd.so'm)<sup>8</sup>**

| <b>Ko'rsatkichlar</b>                                                                  | <b>Yillar</b> |             |             |             |
|----------------------------------------------------------------------------------------|---------------|-------------|-------------|-------------|
|                                                                                        | <b>2011</b>   | <b>2012</b> | <b>2013</b> | <b>2014</b> |
| O'zbekiston Respublikasi davlat byudjeti xarajatlari (maqsadli jamg'armalarsiz) - jami | 16 726.0      | 20 882.0    | 25 825,9    | 31582,3     |
| Mahalliy byudjetlar xarajatlari                                                        | 9667,9        | 12179,2     | 14729,0     | 17301,2     |
| Davlat byudjetiga nisbatan salmog'i (%)                                                | 57,8          | 58,3        | 57,0        | 55,1        |

2-jadvalga ko'ra, 2015-yilda mahalliy byudjetlar bo'yicha ja'mi xarajatlarning 10,7 foizini Farg'ona viloyati byudjeti xarajatlari tashkil qiladi. Shuningdek, mahalliy byudjetlar xarajatlarining:

- 8,4% -Toshkent shahri;
- 8,9 % - Qashqadaryo viloyati;
- 8,4% - Toshkent viloyati hissasiga to'g'ri keladi.

10,6 % - Samarqand viloyati byudjetlariga to'g'ri keladi. Shu o'rinda mahalliy byudjet xarajatlari tarkibida eng kam ulushga ega viloyatlardan Navoiy

<sup>8</sup> O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi rasmiy sayti ma'lumotlari asosida talaba tomonidan tayyorlandi.

viloyati (3,9%), Jizzax viloyati (4,3%), Sirdaryo viloyati (3,0%), Buxoro viloyati (5,7%) hamda Xorazm viloyati (5,5%) kabilarni aytib o'tish mumkin.

## 2-jadval

### O'zbekiston Respublikasi mahalliy byudjetlar xarajatlarini 2012-2015 yillarda davlat byudjetidagi ulushi (%da)<sup>9</sup>

| Hududlar                      | 2012 yil | 2013 yil | 2014 yil | 2015 yil |
|-------------------------------|----------|----------|----------|----------|
| Qoraqalpog'iston Respublikasi | 6,8      | 6,8      | 6,9      | 6,8      |
| Andijon viloyati              | 8,3      | 8,2      | 8,3      | 8,4      |
| Buxoro viloyati               | 5,8      | 5,8      | 5,7      | 5,7      |
| Jizzax viloyati               | 4,4      | 4,6      | 4,6      | 4,3      |
| Qashqadaryo viloyati          | 9,0      | 8,7      | 9,0      | 8,9      |
| Navoiy viloyati               | 3,8      | 3,8      | 3,8      | 3,9      |
| Namangan viloyati             | 7,7      | 7,6      | 7,7      | 7,9      |
| Samarqand viloyati            | 11,0     | 10,4     | 10,5     | 10,6     |
| Surxondaryo viloyati          | 7,6      | 7,5      | 7,5      | 7,5      |
| Sirdaryo viloyati             | 3,0      | 3,1      | 3,1      | 3,0      |
| Toshkent viloyati             | 8,0      | 8,1      | 8,2      | 8,4      |
| Farg'ona viloyati             | 10,7     | 10,9     | 10,6     | 10,7     |
| Xorazm viloyati               | 5,4      | 5,6      | 5,6      | 5,5      |
| Toshkent shahri               | 8,5      | 9,2      | 8,5      | 8,4      |
| Respublika bo'yicha jami      | 100,0    | 100,0    | 100,0    | 100,0    |


Mahalliy byudjetlar mablag'laridan foydalanishning asosiy yo'nalishi ijtimoiy infratuzilmasini moliyaviy ta'minlash hisoblanadi.

Xozirgi vaqtda mahalliy xokimiyat organlarining ma'muriy hududlarni iqtisodiy va ijtimoiy rivojlantirish yuzasidan huquq va majburiyatlari tobora ortib bormoqda. Bu esa ularning moliyaviy bazalarini yanada kengaytirish va mustahkamlashini ob'ektiv zuriyatiga aylantirib qo'yadi.

2010-2014-yillarda Respublika mahalliy byudjet xarajatlari tarkibida ijtimoiy soha xarajatlarini bajarilishi tahlilini ko'radigan bo'lsak, 2010-yilda mahalliy byudjetning ijtimoiy xarajatlarning ulushi jami mahalliy byudjet xarajatlari

<sup>9</sup> O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi rasmiy sayti ma'lumotlari asosida talaba tomonidan tayyorlandi.

tarkibida 80,7 % ni tashkil etgan bo`lsa, 2014-yil bu ko`rsatkich 83,2 %ni tashkil etgan. (5-rasm)



**5-rasm. Mahalliy byudjet ijtimoiy harajatlarini jami mahalliy byudjet harajatlaridagi salmog`i (%)<sup>10</sup>**

Amaldagi xarajat vakolatlarini taqsimlash tizimiga muvofiq mahalliy byudjetlarning davlat moliyalashtirishdagi roli yuqori bo`lib, ularning ma`lum xarajatlari tarkibi yuzaga kelgan. Mahalliy byudjetlarning jami xarajatlarida ijtimoiy soha va muhofazaga sarflanayotgan xarajatlarning salmog`i eng kattadir.

2015-yilda Davlat byudjeti xarajatlari tarkibida ijtimoiy sohaga yo`naltirilgan xarajatlarning qariyb 60 foizi ijtimoiy sohani rivojlantirishga yo`naltirildi<sup>11</sup>.

Tahlillarimiz natijasida shu narsaga amin bo`ldikki, mahalliy byudjetni ijro etilishida byudjet mablag`laridan maqsadli foydalanishning, xarajatlarning aniq vaqt davomida va tezkorlik bilan amalga oshirish hamda mablag`lar nazorati ta`minlanmoqda. O`zbekiston Respublikasida ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar yanada chuqurlashtirilayotgan davrda, ijtimoiy hayotimizning barcha sohalarida bo`lgani kabi moliya, byudjet ijrosi tizimida ham olib borilgan iqtisodiy islohotlar o`z natijasini bermoqda.

<sup>10</sup> O`zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi rasmiy sayti ma`lumotlari asosida talaba tomonidan tayyorlandi.

<sup>11</sup> O`zbekiston Prezidenti Islom Karimovning mamlakatimizni 2015-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2016-yilga mo`ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo`nalishlariga bag`ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma`ruzasi. //“Xalq so`zi”, 2016-yil 16-yanvar.


## **2.2. Mahalliy byudjetlar xarajatlari ijrosida g`aznachilik tizimini hozirgi holati tahlili**

Davlat byudjetining barcha mablag`lari g`aznachilikning yagona bir hisobraqamida to`planadi, amaldagi byudjet tizimida buning iloji yo`q edi, chunki, ba`zi mahalliy soliqlar va yig`imlar tuman byudjetining tijorat banklardagi hisobraqamiga tushadi. G`aznachilikni joriy etilishi bilan, davlat byudjetining daromad qismining ijrosi tijorat banklari tomonidan emas, g`aznachilik tizimi orqali amalga oshiriladi. Bunda O`zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi byudjet tizimining barcha darajadagi byudjetlarga tushumlarning manbalari bo`yicha soliqlarning yig`ilishi to`g`risida, byudjet tasnifi asosida respublika va mahalliy byudjet xarajatlarining kassa ijrosi bo`yicha har kuni axborot olinishi mumkin bo`ladi. Davlat byudjetining xarajatlar va daromadlar qismining ijrosi to`g`risidagi hisobot g`aznachilik tomonidan tuziladi.

Demoqchimizki, mahalliy byudjetni ijro etilishida g`aznachilik tizimiga o`tish byudjet mablag`laridan maqsadli foydalanishning, boshqaruv organlari xarajatlarini qisqartirishning imkoniyatini beradigan to`g`ri yo`llardan biridir. (6-rasm). Zero, O`zbekiston Respublikasida ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar yanada chuqurlashtirilayotgan davrda, ijtimoiy hayotimizning barcha sohalarida bo`lgani kabi moliya, byudjet sohasida ham chuqur o`zgartirishlarni amalga oshirish hozirgi kunning asosiy talabidir.

Davlat moliyasidan maqsadli tarzda, oqilona, samarali foydalanish har qanday mamlakat byudjetlari ijrosining zaruriy ko`rsatkichi hisoblanadi, byudjet ijrosi soliq to`lovchining ham, davlat hokimiyati va boshqaruv organi vakillarining ham diqqat e`tiborida turadi.

G`aznachilik tizimini joriy etish davlat moliyasini boshqarishning mavjud tizimini yanada takomillashtirishga ko`maklashadi va mahalliy byudjet xarajatlarini samarali ijrosini ta`minlashda muhim o`rin tutadi.



**6-rasm. G`aznachilikdan xarajatlarni moliyalashtirishga sertifikatlar berilishi<sup>12</sup>**

G`aznachilik joriy etilishi bilan Moliya vazirligi va moliya organlarining funksional majburiyatlari quyidagicha taqsimlanishi mumkin. (3-jadval)

<sup>12</sup> T. Eshnazarov: "G`aznachilik tizimi munosabatlari". – T.: "Fan", 2008, 124-bet.

**Byudjetni ijro etish jarayonida funksional majburiyatlarni taqsimlanishi<sup>13</sup>**

| <b>№</b> | <b>Byudjet jarayoni bosqichlari</b>                                                         | <b>Amaldagi byudjet tizimi</b>                                                  | <b>G`aznachilikdagi byudjet tizimi</b>                                          |
|----------|---------------------------------------------------------------------------------------------|---------------------------------------------------------------------------------|---------------------------------------------------------------------------------|
| 1        | Byudjet loyihasini tayyorlash                                                               | Byudjet Boshqarmasi-Hududlar moliyasi Boshqarmasi                               | Byudjet Boshqarmasi-Hududlar moliyasi Boshqarmasi                               |
| 2        | Byudjet mablag`larini yillik, choraklik limitlarining taqsimoti                             | Byudjet Bosh Boshqarmasi-Hududlar Moliyasi Boshqarmasi, vazirliklar va idoralar | Byudjet Bosh Boshqarmasi-Hududlar Moliyasi boshqarmasi, vazirliklar va idoralar |
| 3        | Yillik, choraklik byudjetlarni aniqlashtirish                                               | Byudjet Bosh Boshqarmasi-Hududlar moliya Boshqarmasi                            | Byudjet Bosh Boshqarmasi-Hududlar Moliya Boshqarmasi                            |
| 4        | Kassadagi naqd pullarni boshqarish-oylik byudjet tushumlari va xarajatlarini rejalashtirish | Byudjet Bosh Boshqarmasi-Hududlar Moliya Boshqarmasining bugalteriyasi          | G`aznachilik-respublika, viloyat, tuman, shahar bosqichlari                     |
| 5        | Kassa limitlari to`g`risida bildirishnomalarni berish                                       | Byudjet boshqarmasi sertifikat beradi                                           | G`aznachilik sertifikat beradi                                                  |
| 6        | Shartnoma majburiyatlarini tuzish                                                           | Byudjet tashkiloti                                                              | Byudjet tashkiloti                                                              |
| 7        | Ko`rsatilgan xizmatlar, bajarilgan ishlar va olingan tovarlar tasdig`ini berish             | Byudjet tashkiloti                                                              | Byudjet tashkiloti                                                              |
| 8        | To`lovga hisob-kitobni tayyorlash                                                           | Byudjet tashkiloti                                                              | Byudjet tashkiloti                                                              |
| 9        | To`lov qog`ozini nazorati                                                                   | Tijorat banklari                                                                | G`aznachilik                                                                    |
| 10       | Pul mablag`larini o`tqazish bo`yicha bankka to`lov qog`ozini tayyorlash                     | Byudjet tashkiloti                                                              | G`aznachilik                                                                    |
| 11       | Shartnoma majburiyatlarni dastlabki nazorati                                                | Moliya vazirligi va moliya organlari                                            | G`aznachilik organlari                                                          |
| 12       | Ichki audit                                                                                 | Nazorat-tekshiruv Boshqarmasi                                                   | Nazorat-tekshiruv Boshqarmasi                                                   |
| 13       | Tashqi audit                                                                                | Hisob palatasi                                                                  | Hisob palatasi                                                                  |

<sup>13</sup> Davlat moliyasini isloh qilishning dolzarb muommolari. Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallar. -T., 2009-yil 2-dekabr.111-bet.

G`aznachilik tizimi davlat siyosatining ustuvor yo`nalishlariga mos holda davlat xarajatlarini samarali boshqarishga yo`naltirilgan tashkiliy-huquqiy munosabatlarning yig`indisidan iborat. Bu munosabatlar davlat byudjetining daromad va xarajatlari bo`yicha amaliyotlarni qamrab olganligi sababli, O`zbekiston sharoitida davlat moliyasini boshqarishning markazidan o`rin egallaydi.


G`aznachilik organlari o`z zimmasiga yuklatilgan vazifalarni ijro etish jarayonida davlat boshqaruvining tegishli organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari, O`zbekiston Respublikasi Markaziy banki, tijorat banklari, boshqa tashkilotlar bilan o`zaro hamkorlikda bajaradi.

Belgilangan tartibga ko`ra, mazkur organlar va tashkilotlar Davlat byudjetining kassa ijrosini amalga oshirishda, uning mablag`larini boshqarishda, Davlat byudjeti mablag`larining tushumi va sarfi ustidan nazoratni amalga oshirishda g`aznachilikka ko`maklashishlari lozim.

G`aznachilik organlari o`z ish faoliyatida davlat soliq, bojxona xizmati organlari, O`zbekiston Respublikasi Markaziy banki, tijorat banklari, davlat maqsadli jamg`armalarini taqsimlovchi organlar, Davlat byudjetida mablag`lar olishi nazarda tutilgan yuridik shaxslar, shuningdek, byudjet jarayonining boshqa ishtirokchilari Davlat byudjetining g`azna ijrosiga tegishli ma`lumotlarni qonun hujjatlarida belgilangan tartibda almashib turadilar.

Davlat byudjetining g`azna ijrosini amalga oshirishda tashkil etiladigan g`aznachilikning yagona hisob varag`ini alohida o`rni mavjud. G`aznachilikning yagona hisobvarag`i g`aznachilik tomonidan boshqariladigan, O`zbekiston Respublikasi Markaziy bankida ochiladigan maxsus bank hisobvarag` bo`lib, bu hisobvarag`ga Davlat byudjeti mablag`lari (shu jumladan, davlat maqsadli jamg`armalarining mablag`lari) hamda byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari mablag`lari kiritiladi. Yagona g`azna hisobvarag`idan Davlat byudjetidan mablag`lar berilishi nazarda tutilgan yuridik va jismoniy shaxslarning xarajatlari to`lanadi, shuningdek, davlat maqsadli jamg`armalarining xarajatlari amalga oshiriladi.

Markaziy g`aznachilikni tashkil qilishdan maqsad - O`zbekiston Respublikasi Davlat byudjetining ijrosi jarayonida mablag`larni samarali boshqarish, davlat buyurtmalarini va dasturlarini moliyalashtirishda tezkorlikni oshirish, byudjet daromadlari tushumini va davlat mablag`lari maqsadli sarflanishini nazorat qilishda tezkorlikni ta`minlashdir.



**7-rasm. O`zbekiston Respublikasi g`aznachilik tizimiga bosqichma bosqich o`tish elementlari<sup>14</sup>**

Markaziy g`aznachilik daromadlar va xarajatlar bo`yicha O`zbekiston Respublikasi Davlat byudjetining ijrosida, byudjet hisobvarag`lari va mablag`larini boshqarishda aniq vakolatlarga ega va u O`zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining tashkiliy tizimi hisoblanadi. Markaziy g`aznachilik o`z faoliyatini O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga, Davlat qonunchiligi, O`zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlari, farmonlari va farmoyishlari, O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qaror va farmoyishlari, O`zbekiston

<sup>14</sup> Davlat moliyasini isloh qilishning dolzarb muommolari. Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallar. -T.: 2009-yil 2-dekabr, 112-bet.



Respublikasi Moliya vazirligining ko'rsatma va yo'riqnomalari hamda boshqa me'yoriy - huquqiy hujjatlar asosida amalga oshiriladi.

#### 4-jadval

##### G'aznachilik tizimining tuzilmasi<sup>15</sup>

| № | Pog'onalar       | Amalga oshiriladi                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                        |
|---|------------------|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| 1 | Birinchi pog'ona | Respublika bo'yicha Markaziy g'aznachilik G'aznachilik hisobvaraqlaridagi mablag'lar harakatini boshqaradi va davlat byudjeti daromadlari va xarajatlarning jamlanma hisobini yuritadi. Qonun bilan belgilangan tashkilotlarga byudjet ijrosi to'g'risida tegishli ma'lumotnomalar beradi. Quyi g'aznachilik idoralari ishini boshqaradi, ulardan byudjet daromadlari va xarajatlari to'g'risida ma'lumot va hisobotlarni qabul qiladi va quyi organlar tomonidan byudjetning ijrosini qonunchilikka binoan ta'minlaydi. |
| 2 | Ikkinchi pog'ona | viloyat g'aznachilik boshqarmalari, mahalliy byudjetning daromad qismining shakllantirilishi va xarajatlarning amalga oshirilishini ta'minlaydi. Viloyat byudjeti mablag'larining harakatini boshqaradi. Mahalliy byudjet daromadlari va xarajatlari hisobini yuritadi, quyi g'aznachilik organlari va byudjetdan moliyalashtiriladigan tashkilotlar faoliyatini nazorat qiladi.                                                                                                                                         |
| 3 | Uchinchi pog'ona | shaharlarda, tumanlarda va shaharlardagi tumanlarda g'aznachilik bo'linmalari, hududda byudjetning daromad qismining shakllantirilishi va byudjet muassasalar bo'yicha xarajatlarning maqsadli moliyalashtirilishini ta'minlaydilar. G'aznachilik hisobvaraqlarida mablag'lar harakati hisobini yuritadilar va hududda daromadlar va xarajatlar bo'yicha byudjet ijrosi to'g'risida yuqori g'aznachilik organlariga axborot beradilar.                                                                                   |

Davlat byudjetining g'aznachilik ijrosini tatbiq etishni bosqichma-bosqich amalga oshirish uchun O'zbekiston Respublikasining "Byudjet Kodeksi" hamda har yilgi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va Davlat byudjeti parametrlari to'g'risidagi qarorlari asos

<sup>15</sup> Qosimova G.A. "Davlat budjeti ijrosining g'aznachilik tizimi", o'quv qo'llanma. –T.: "Iqtisod-moliya", 2008, 86-bet.

bo`ladi, 2006-yilda Davlat byudjetining g`azna ijrosining ayrim mexanizmlari Qoraqalpog`iston Respublikasi, Buxoro, Namangan, Samarqand, Surxondaryo, Sirdaryo, Xorazm viloyatlari va Toshkent shahrida joriy qilindi. 2007-yildan boshlab ushbu mexanizm respublikamizning boshqa hududlariga ham joriy etildi. Ushbu jarayonlarni tartibga solish, g`aznachilik tizimini joriy qilish metodologiyasini ishlab chiqish hamda uni joriy etish uchun O`zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining Davlat byudjetining g`aznachilik ijrosi metodologiyasi va uni joriy etish boshqarmasi tashkil etildi hamda tegishli moliya organlarida g`aznachilik tizimi joriy etildi. 2005-yil may oyida 1475-sonli "Byudjetdan mablag` oluvchilarning tovar (ish va xizmatlar) yetkazib beruvchilar bilan tuzgan shartnomalarini ro`yxatga olish va ular xarajatlari to`lovini nazorat qilish to`g`risida"gi vaqtinchalik Nizom qabul qilindi va unga asosan, g`aznachilik tizimi organlari faoliyat ko`rsata boshladi.

Mahalliy byudjet xarajatlari ijrosi mamlakatimizda g`aznachilik tizimi orqali amalga oshirilib kelinmoqda. G`aznachilik tizimida mahalliy byudjet xarajatlari quyidagi ketma-ketlikda amalga oshiriladi.

I guruh va unga tenglashtirilgan xarajatlar bo`yicha moliyaviy majburiyatlarni qabul qilish va ularning to`lovi. Naqd pul mablag`lari berishda cheklarning ishlatilish tartibi va shartlari qonunchilik orqali tartibga solinadi. Naqd pul olish uchun chek daftarchalarini g`aznachilik bo`linmasi xizmat ko`rsatuvchi bank filialidan ularni keyinchalik byudjetdan mablag` oluvchilarga tarqatish uchun oladi. Bunda, byudjetdan mablag` oluvchilar g`aznachilik bo`linmalariga byudjetdan mablag` oluvchilarning rahbari va bosh hisobchisi imzosi qo`yilgan ishonchnoma va so`rovnomalarni taqdim qiladi. Byudjetdan mablag` oluvchiga berilgan chek daftarining raqamlari uning g`aznachilik bo`linmalaridagi imzo namunalari kartochkalariga yoziladi. Moliya yili mobaynida o`rnatilgan tartibda ishlatilgan chek daftarchalari byudjetdan mablag` oluvchilar tomonidan moliya yili yakunlangunga qadar g`aznachilik bo`linmalariga qaytarilishi lozim. Bunda, buzilgan (bekor qilingan) cheklar mavjud bo`lgan holatda, byudjetdan mablag` oluvchilar majburiy tartibda ularni ishlatilgan chek daftarchalari bilan birga, ular

mavjud bo'lmaganda (misol uchun, yo'qotilgan holatda), ularning yo'qligi bo'yicha ko'rilgan tadbirlar va sabablari to'g'risida g'aznachilik bo'linmalarini yozma xabardor qiladilar.

G'aznachilik bo'linmasining mas'ul xodimi ishlatilgan chek daftarchalarini olgandan so'ng, ulardagi ma'lumotlarni G'aznachilik dasturiy majmuidagi oldin to'langan summalar va cheklar soni o'g'risidagi ma'lumotlar bilan solishtiradi. Ishlatilgan cheklar bo'yicha ma'lumotlarda farqlar mavjud bo'lgan hollarda, g'aznachilik bo'linmasi tomonidan buning sabablarini aniqlashtirish uchun ro'yxat va unga yetishmayotgan cheklarning chek daftarchalari raqami va summalarini ko'rsatgan holda ilova tuziladi va byudjetdan mablag' oluvchiga taqdim qilinadi.

G'azna hisobvaraqlaridan naqd pul mablag'lari olish uchun chek — bu g'aznachilik bo'linmasining ma'lum naqd pul summasini byudjetdan mablag' oluvchiga berishga yozma topshirig'idir. Cheklar byudjetdan mablag' oluvchilar tomonidan siyoh yoki sharikli ruchka bilan qo'lda yoziladi. Cheklarga o'chirib yozish, tuzatish, to'g'rilashlarga yo'l qo'yilmaydi. Faksimil ishlatilishiga yo'l qo'yilmaydi. Cheklar o'n kun davomida (ularni yozib berilgan kundan tashqari) haqiqiy hisoblanadi. Chek raqami imzo va muhr izi namunasi kartochkada ro'yxatga olingan chek daftarchasi raqami va seriyalariga muvofiq bo'lishi lozim. Pul cheklari O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining me'yoriy hujjatlariga muvofiq rasmiylashtiriladi. Banklar tomonidan cheklar bo'yicha naqd pul mablag'larini berish ularda imzo namunasi kartochkasida ko'rsatilgan imzo qo'yish huquqiga ega g'aznachilik bo'linmasining mansabdor shaxslari imzosi va g'aznachilik bo'linmasining muhri bilan tasdiqlanganligi mavjud bo'lganda amalga oshiriladi. G'azna hisobvaraqlaridan mablag'lar berish uchun cheklarga g'aznachilik bo'linmasi rahbari va mas'ul xodimining imzosi va g'aznachilik bo'linmasining muhri qo'yiladi. Byudjetdan mablag' oluvchilarga beriladigan cheklarda faqat nomi ko'rsatilgan bo'lishi mumkin. Nomi ko'rsatilgan cheklar bo'yicha naqd pullar faqat chekda ko'rsatilgan shaxsga beriladi. Nomi ko'rsatilgan cheklar bo'yicha byudjetdan mablag' oluvchining bosh hisobchisiga naqd pul berilishiga yo'l qo'yilmaydi. G'aznachilik bo'linmasi pul cheklarining orqa

tomonidagi summalar maqsadini tekshirishi lozim. Pul cheklarining orqa tomonidagi to'lov maqsadlari to'g'risidagi ma'lumot g'aznachilik bo'linmasining imzosi bilan tasdiqlanadi.

Olingan chek daftarchalari byudjetdan mablag' oluvchilarda saqlanadiva cheklarni qonunchilikda belgilangan tartibda saqlash va ishlatish bo'yichai javobgarlik byudjetdan mablag' oluvchilarning rahbarlari va boshi hisobchilariga yuklanadi. G'aznachilik bo'linmalarining moliyaviy majburiyatlarni ro'yxatga olish va to'lovlarni amalga oshirish bo'limi (guruhi) mas'ul xodimlari to'lov uchun so'rovnoma va boshqa hujjatlarni qabul qilishda ushbu hujjatlarning ikkinchi nusxasiga hujjatlarni qabul qilganligi to'g'risida o'z imzolarini qo'yadi va ular qabul qilingan sanani ko'rsatgan holda byudjetdan mablag' oluvchining tegishli xodimiga qaytaradi. Byudjet mablag'larini taqsimlovchilari, taqdim qilingan mahsulotlar, bajarilgan ishlar, ko'rsatilgan xizmatlar uchun hisob-kitobni amalga oshiruvchilar - byudjetdan mablag' oluvchilardir yoki byudjet tashkilotlaridir. Byudjet amaliyotida mablag'larini sarflash jarayoni uch bosqichga bo'linadi:

1) Tasdiqlangan byudjet mablag'larini oluvchilarga yetkazish bosqichi. Respublika va mahalliy byudjetlardan moliyalashtiriladigan tashkilotlar e'tiboriga byudjetdan ajratiladigan mablag'larning tasdiqlangan miqdori yetkaziladi. Bu bosqichning asosiy vazifasi -xarajatlarni amalga oshirishdagi majburiyatlarini qabul qilishda byudjet tashkilotlariga byudjet majburiyatlarini limitini belgilash va yetkazishdir. Byudjet majburiyatlarining limiti-byudjet ijrosini amalga oshiruvchi, byudjet mablag'larini taqsimlovchi va oluvchi organlar uchun aniqlangan va tasdiqlangan byudjet majburiyatlarining yig'indisidir;

2) Byudjet xarajatlarni moliyalashtirish bosqichi. Byudjet tashkilotlarining moliyalashtirish limiti - joriy moliyay ilida beriladigan pul mablag'larining chegarasidir. Byudjet tashkilotlari faqat yuqori byudjet mablag'larini taqsimlovchilar tomonidan chegaralangan mablag'larning sarflashni amalga oshirish huquqiga ega bo'lishlari kerak. Boshqacha qilib aytganda, byudjet tashkilotlarini moliyalashtirish rejasining hajmi davlatning byudjetdan mablag' oluvchiga byudjet majburiyatlarini qabul qilish huquqiningberilishidir;

3) Byudjet xarajatlarini kassali ijro etish bosqichi. Bu bosqichda belgilangan tartibda va chegaralangan mablag`lar doirasida, tasdiqlangan xarajatlar smetasiga asosan qabul qilingan byudjet majburiyatlarini to`lovi amalga oshiriladi. Davlat byudjetidan majburiyatlarning to`lovi belgilangan tartibda rasmiylashtirilgan byudjet mablag`i oluvchilarining taqdim qilgan va byudjet majburiyatlarni ijrosini tasdiqlovchi xujjatlar asosida xarajatlarni amalga oshiriladi. Byudjet ijrosi jarayonining har bir bosqichi moliyaviy nazorat bilan birgalikda olib boriladi. Byudjet mablag`larini ishlatilishini nazorati orqali davlat va mahalliy boshqaruv organlari muntazam ravishda tasdiqlangan byudjetning daromad va xarajatlar rejalarini to`liq vasifatli bajarilishini nazoratga olish, ularning bajarilishiga ta`sir qiluvchi turli salbiy omillarni aniqlash va ularni bartaraf etish uchun zudlik bilan zarur chora-tadbirlar belgilash imkoniga ega bo`ladilar.

Dastlabki nazorat xarajatlar rejasini tuzish vaqtida o`tkaziladi. Byudjet tashkilotlarining majburiyatlar hisobini yuritish bosqichida amalga oshiriladi va byudjetdan mablag` oluvchilarning ko`zda tutilmagan xarajatlar bo`yicha byudjet majburiyatlari olinishiga qarshilik ko`rsatiladi. Dastlabki nazorat-taxminlashtirish, rejalashtirish va loyihalashtirish bosqichida, moliyaviy operatsiyalar amalga oshirishlashidan avval o`tkaziladi, oqilona boshqaruv yechimlari qabul qilinishiga xizmat qiladi, uning maqsadi noqonuniy operatsiyalar, samarasiz xarajatlarning oldini olishdir.

Joriy nazorat moliyaviy operatsiyalar amalga oshirilganidan keyin o`tkaziladi, tekshirilayotgan xujjatlarni va muassasaning moliyaviy faoliyati o`rganiladi. Joriy nazorat ham moliyalashtirish bosqichida amalga oshiriladi. Byudjet tashkilotlari byudjetni ijro qiluvchi organga majburiyatlarni qabul qilinganlik holatini tasdiqlaydigan xujjatlarni tekshiruv uchun taqdim qiladi. Bundan tashqari, aniq xarajatlarni to`loviga xujjat tayyorlash qoidasiga javob berilishi mavjud talablariga rioya qilinishi kerak. Shu bosqichda byudjet tashkilotlarining ko`zda tutilmagan xarajatlarga qarshilik ko`rsatiladi.

Yakuniy nazorat o`tkazilishida byudjet majburiyatlarini qabul qilishdagi tovarlar va xizmatlarning real qiymatiga tovarlar va xizmatlar uchun to`langan

summaga muvofiqligi belgilanadi. Yakuniy nazorat byudjet loyihasini tuzish va ko`rib chiqish uchun javobgar moliya va nazorat organlari, davlat boshqaruv organlari, shuningdek, Hisob Palatasi tomonidan nazorat amalga oshirilishi mumkin. Byudjet tashkilotlarining xarajatlarni katta qismini kommunal xizmat haqlari egallaydi va ular bilan shartnomalarni aniq, to`g`ri hisoblar bilan tuzish muhimdir. Byudjet tashkilotlarida kommunal xizmatlar (issiqlik energiyasi, issiq va sovuq suv, kanalizatsiya), gaz va elektr energiya sotib olish xarajatlari limitlariga qat`iy rioya etishtalab etiladi. Barcha byudjet tashkilotlarining xarajatlar smetasi tasdiqlanganidan so`ng bir hafta ichida kommunal xizmatlari ko`rsatuvchi, gaz, va elektr energiyasi sotuvchi korxonalar bilan shartnomalarni ushbu xizmatlarga smetalarida ko`zda tutilgan limitlar doirasida tuzishni ta`minlash, hisob-kitoblarni oyma-oy amalga oshirib borish, limitdan ortiqcha ko`rsatilgan xizmatlarga haq to`lamaslik muassasalarda ushbu xarajatlarga mas`ul bo`lgan xodimlarni buyruq bilan biriktirib qo`yish maqsadga muvofiq bo`ladi.

III guruh xarajatlari bo`yicha moliyaviy majburiyatlarni qabul qilish va ularni to`lovini amal qilish xususiyatlari III guruh xarajatlari bo`yicha moliyaviy majburiyatlarning qabulqilinishi pudratchilarning ish bajarilganligini tasdiqlovchi hisobvara-q-fakturalar asosida amalga oshiriladi. G`aznachilik bo`linmalari tomonidan pul mablag`larini o`tkazish quyidagi hollarda amalga oshiriladi: to`lov topshiriqnomasida byudjet tasnifining tegishli kodlari, shartnoma, hisobvara-q-faktura, avans miqdori va boshqa kerakli rekvizitlar to`g`ri ko`rsatilganda qurilishlarning tasdiqlangan manzilli va titul ro`yxatlari asosidava tegishli ob`ektlar bo`yicha shaxsiy g`azna hisobvaraqlaridagi mavjud ajratilgan byudjet mablag`lari summolari doirasida bo`lganda; agar to`lov topshiriqnomasida ko`rsatilgan summa g`aznachilik bo`linmasida ro`yxatga olingan shartnomaga asosan, oldin o`tkazilgan mablag`larni hisobga olgan holda, to`lanishi lozim bo`lgan pul mablag`laridan oshmaganda; buyurtmachining pudratchi oldidagi kreditorlik qarzining mavjudligini tasdiqlovchi hisobvara-q-faktura va hujjatlar, yoki buyurtmachining pudratchiga avans to`lovlarini o`tkazishi lozimligini tasdiqlovchi hujjatlar mavjud bo`lganda; to`lov topshiriqnomasida ko`rsatilgan

pudratchining nomi va rekvizitlari shartnomada ko`rsatilgan pudratchining nomi va rekvizitlariga muvofiq bo`lganda. Bajarilgan ishlar uchun xarajatlar to`lovi, jumladan avans to`lovlarining to`lanishi o`rnatilgan tartibda rasmiylashtirilgan va buyurtmachilar tomonidan g`aznachilik bo`linmalariga taqdim qilingan to`lov topshiriqnomalari asosida amalga oshiriladi, bunda to`lov topshiriqnomasining “To`lovchining nomi” ustunida g`aznachilik bo`linmasining nomi, “To`lovchining hisob raqami” ustunida — g`azna hisobvarag`i, “To`lov maqsadi” ustunida — byudjetdan mablag` oluvchining shaxsiy hisobvaraqq raqami, byudjet tasnifining tegishli kodi, to`lovni o`tkazishga asos bo`ladigan hujjatlar, shuningdek to`lov maqsadi ko`rsatiladi.

IV guruh xarajatlari bo`yicha moliyaviy majburiyatlarni qabul qilish va ularning to`lovi. IV guruh xarajatlari bo`yicha moliyaviy majburiyatlar mahsulot yetkazib beruvchilarning hisobvaraqq-fakturalari yoki tovarlar yetkazib berilganligini tasdiqlovchi boshqa hujjatlar, yoki byudjetdan mablag` oluvchilarning mahsulot yetkazib beruvchiga byudjet (byudjetdan tashqari) mablag`larini (shujumlardan, avans to`lovlarini) o`tkazishi lozimligini tasdiqlovchi boshqa hujjatlar asosida qabul qilinadi. G`aznachilik bo`linmasi byudjetdan mablag` oluvchilarning to`lov topshiriqnomalari asosida g`azna hisobvaraqlaridan IV guruh xarajatlari bo`yicha xarajatlarni byudjetdan mablag` oluvchilarning xarajatlar smetalarining tegishli moddalarida nazarda tutilgan ajratilgan byudjet mablag`lari limitlari doirasida amalga oshiradi.

Nizomda belgilanganidek, byudjet mablag`lari oluvchilarning iqtisodiy tasnif bo`yicha IV guruh xarajatlari g`aznachilik orqali nazorat etib boriladi. (8-rasm)


Byudjet xarajatlari amalga oshirilishini boshqarishni mujassamlashtirish maqsadida:

1) tegishli byudjet va davlat maqsadli jamg`armalaridan xarajatlarning tegishli ruxsat orqali amalga oshirilishi hamda ularning hajmi yillik ajratmalar va xarajatlarni amalga oshirish ruxsati miqdoridan oshmasligi kerak.

2) byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari jamg`armalari xarajatlari tegishli ruxsat asosida amalga oshirilishi hamda byudjetdan tashqari daromadlar hajmi doirasida amalga oshiriladi.

3) maqsadli grantlar va davlat qarzlarini hisobiga moliyalashtiriluvchi xarajatlar uchun xarajatlar tegishli ruxsat va amaldagi me`yor va qo`llanmalar asosida mavjud holda mablag`lar doirasida g`aznachilik organlarining tegishli ruxsati asosida amalga oshiriladi.

G`aznachilik to`lovlarini amalga oshirish byudjet mablag`lari oluvchilarning yuridik majburiyatlarni olishi asosida moliyaviy majburiyatlarini bajarishi, deb tushuniladi.



**8-rasm. G`aznachilik to`lovlarni amalga oshirish<sup>16</sup>**

G`aznachilikda kassani rejalashtirish muhim ahamiyatga ega. Uning asosiy maqsadi:

- byudjet ijrosining o`z vaqtida bajarilishi;
- davlat boshqaruvi organlari va byudjet tashkilotlarining kredit qobiliyatining o`lishini ta`minlash;
- byudjet xarajatlarini minimallashtirish;

<sup>16</sup> Qosimova G.A. "Davlat budjeti ijrosining g`aznachilik tizimi", o`quv qo`llanma. –T.: "Iqtisod-moliya", 2008, 168-bet.



- kassaning holati va kassa oqimlari bo'yicha oldindan ma'lumot olish va ularni moliyaviy qarorlarni qabul qilishda foydalana olish imkoniyatini beradi.

Kassani boshqarishni takomillashtirish quyidagilardan iborat:

- byudjet tashkilotlarining barcha byudjetlarini o'z vaqtida ijro qilishni ta'minlash;

- xo'jalik sub'ektlarining byudjet to'lovlari muddatlari bilan bog'liq kredit qobiliyatini pasaytirish xavfini kamaytirish;

- xarajatlarni amalga oshirish va tushumlarni amalga oshirish bilan bog'liq xarajatlarni, shu jumladan, foizlarni to'lash bilan bog'liq qo'shimcha xarajatlarni kamaytirish imkoniyatini beradi.

Mahalliy byudjetlar xarajatlar ijrosini tashkil etish holati tahlilini ko'rib chiqish, mahalliy byudjetlar xarajatlar ijrosi jarayonida ijro organlari funksional majburiyatlarni taqsimlanishi holati, O'zbekiston Respublikasi g'aznachilik tizimiga bosqichma bosqich o'tish elementlari va bunda erishilgan natijalar, g'aznachilik tizimining tuzilmasi va bunda g'aznachilik to'lovlarni amalga oshirish jarayoni tahlili qilish natijasida g'aznachilik tizimini o'rni beqiyosligi ko'rsatib berildi.

## **2-bob bo'yicha xulosalar**

Tahlillarimiz natijasida shu narsaga amin bo'ldikki, byudjetni ijro etilishida byudjet mablag'laridan maqsadli foydalanishning, xarajatlarning aniq vaqt davomida va tezkorlik bilan amalga oshirish hamda mablag'lar nazorati ta'minlanmoqda. O'zbekiston Respublikasida ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar yanada chuqurlashtirilayotgan davrda, ijtimoiy hayotimizning barcha sohalarida bo'lgani kabi moliya, byudjet ijrosi tizimida ham olib borilgan iqtisodiy islohotlar o'z natijasini bermoqda.

Mahalliy byudjet xarajatlaridan maqsadli va manzilli foydalanishda g'aznachilikning ahamiyatini ko'rishimiz mumkin. Umumiy qilib olinganda mahalliy byudjetlar xarajatlarini samarali ijorisini ta'minlash yildan yilga ijobiy tarafga o'zgarib bormoqda va bunda g'aznachilik tizimini o'rni beqiyosdir.

### **3-BOB. MAHALLIY BYUDJETLARNING XARAJATLARINI SAMARALI IJROSINI TA`MINLASHNING TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI**

#### **3.1. Mahalliy byudjet xarajatlarini samarali ijrosini ta`minlashdagi muammolar va ularning yechimlari**

Mamlakatimiz iqtisodiyotida ro`y berayotgan tub o`zgarishlar moliyaviy jarayonlarni, jumladan, byudjet majburiyatlarining bajarilishini ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan tahlil etishni talab etmoqda. Zero, Prezidentimiz ta`kidlaganidek, “Iqtisodiy o`sinh sur`atlari ta`minlangan hamda moliyaviy barqarorlikka erishilgan islohotlarning hozirgi davrda davlat moliyasi va ayniqsa, byudjet tizimi barqarorligini mustahkamlash muhim strategik vazifa hisoblanadi”<sup>17</sup>.

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida iqtisodiyotni iqtisodiy usullar bilan boshqarishda davlat byudjetidan foydalanishning nazariy va amaliy muammolarini xorijiy hamda mavjud tajribalar assosida o`rganish, ularni takomillashtirish yo`llarini ishlab chiqish iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish jarayonidagi eng dolzarb muammolardan biridir. Iqtisodiyotni boshqarishda davlat byudjetining o`rni va ahamiyati to`g`risidagi fikr yuritishdan avval, iqtisodiyotni boshqarish boshqaruvning iqtisodiy usullariga to`xtalib o`tish maqsadga muvofiqdir.

Iqtisodiyotni boshqarish muammosi ko`p yillardan buyon munozarali mavzu bo`lib kelmoqdi. Mamlakat iqtisodiyoti murakkab xo`jalik majmui bo`lib, uning tarkibiy qismlari juda tez o`zgaruvchan jamiyat extiyojlari va ishlab chiqarishning unga moslashib olishga harakat qilishi tufayli notekis rivojlanadi. Iqtisodiyotning notekis rivojlanishi, uning ba`zi bo`g`inlarining oldinga o`tib ketishiga, boshqalarining esa orqada qolib ketishiga olib keladi.

Iqtisodiyotni oqilona boshqarish orqali uning barcha soxalari o`zaro hamjixatlik bilan muvaffaqiyatli faoliyat ko`rsatishga erilishiladi. Iqtisodiyotni boshqarish deganda, jamiyat extiyojlarining o`zgarishi bilan bog`liq ishlab

---

<sup>17</sup> Karimov I.A.: “Bank tizimi, pul muomalasi, kredit, investitsiya va moliyaviy barqarorlik”. – T.: “O`zbekiston”, 2005, 81-bet.

chiqarish jarayonini takomillashtirishga qaratilgan ayrim tarmoqlar rivojlanishidarakasiga ta'sir ko'rsatishini tushunish mumkin.

Davlatning iqtisodiyotga aralashuvi, iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida iqtisodiyotning tarkibiy tuzilishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Bunday aralashuvning zarurati mamlakatda doimiy iqtisodiy o'sishini hamda asosiy tovar va xizmatlar baxosini barqarorligini ta'minlashdan kelib chiqadi. Bundan tashqari, tovar eksporti va importini e'tiborga olgan holda, tashqi faoliyatni muvofiqlashtirib turish va mehnatga layoqatli aholini ish bilan to'la ta'minlash kabi davlat iqtisodiy siyosatining turli yo'nalishlari iqtisodiyotni boshqarib turishda o'z aksini topishi lozim.

Hozirgi kunda davlat byudjeti xarajatlari va daromadlari kelasi yil uchun o'tgan moliya yilida erishilgan natijalardan kelib chiqib rejalashtirilmoqda, ya'ni, bunda xech qanday iqtisodiy o'sish yoki daromadlar bazasini kengayishi hisobga olinmasdan, rejalashtirilishi jarayoni amalga oshiriladi. Bu mexanizm iqtisodiyoti bir maromda rivojlanib, to'liq iqtisodiy barqarorlikka erishgan davlatlarda qo'llanilsa, maqsadga muvofiq bo'ladi.

O'tish davri iqtisodiyoti sharoitida davlatning moliyaviy resurslari faqat davlatning funksional vazifalarini bajarishga, balki har bir ma'muriy hududning ijtimoiy - iqtisodiy barqarorligini ta'minlayotgan byudjetni rejalashtirish tizimi ushbu maqsadga erishishni to'liq ta'minlay olayotganligi, hududlar xususiyatlaridan kelib chiqqan holda muammolarni hal etish va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash zaruratini yuzaga keltiradi.

Mazkur muammoni hal etish uchun xarajatlar borasida olib borilayotgan byudjet siyosati o'rta muddatli rejalarni tuzishga qaratilishi lozim bo'ladi. Ushbu siyosat hududlarda turmush darajasini ko'tarishga iqtisodiy o'sishga qaratilgan dasturlarni hayotga tadbiiq etishga qaratilgan bo'lib, byudjet xarajatlarining qat'iy me'yorini belgilovchi o'lchamlarning kiritilishini nazarda tutadi, ya'ni, hozirda sinov tariqasida respublikamizada sog'liqni saqlash tizimida amalga oshirilayotgan byudjetdan aholiga ko'rsatilayotgan ijtimoiy xizmat miqdorlarini aholi jon boshiga

qarab belgilash me'yorlari to'liq byudjet xarajatlari hisobidan amalga oshirilishi shular jumlasidandir.

Ijtimoiy iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashda davlatning roli prognozlash va rejalashtirishda ko'rinadi.

Iqtisodiy prognoz bu – iqtisodiy tizimning kelajakdagi (sifat va son shaklida) kompleks daliliy ko'rsatkichlarini tahlil qilishdir. Iqtisodiy prognozning asosiy maqsadi, vazifasi u yoki bu sharoitda (vaziyatda) qanday bo'lish lozimligi xususida ishonchli va ob'ektiv ma'lumot berishdan iborat. Prognozashtirilgan ma'lumotlar jamlanmaydi u faqat kelajakda nima (qanday) bo'lishini ko'rishdan iborat. Bundan tashqari, aniq maqsadga yo'naltirilgan bashoratlar bo'lishi ham mumkin. Ya'ni davlat iqtisodiyotini rivojlantirish uchun aniq maqsadlarni (vazifalarni) oldinga qo'yadi. Shu o'rinda qisqa, o'rta va uzoq muddatdagi maqsadlar orasidagi nomutanosibliklarni ham e'tiborga olish mumkin.

Bashoratlash rejalashtirish bilan o'zaro bog'liq tushunchalardir. Prognozlash rejalashtirilgan aniq hisob-kitoblarga murojat qilmasdan iloji yo'q.

Rejalashtirish – mamlakatimizning, hududlarning, soxalarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi prognozini ishlab chiqarishdagi davlat, boshqaruv organlari va xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning aniq maqsadga yo'naltirilgan faoliyatidir. Rejalashtirish bilan bozor sharoitlarining uyg'unligini ta'minlash lozim. Bular birbirlarini to'ldiruvchi element ekanligini unutmasligimiz kerak.

Rejalashtirish jarayonida iqtisodiy sub'ektlar qatnashadi, bular alohida individ, xo'jalik yurituvchi sub'ekt yoki davlat bo'lishi mumkin. Bu jarayon qonuniy asoslarga ega bo'lishi kerak. Agar biz bir yillik byudjetni rejalashtirayotgan bo'lsak rejalashtirishning uslubiy yo'nalishlarini ishlab chiqish unchalik qiyinchilik tug'dirmaydi. Masalan muddat haqida ekan, rejalashtirishga o'tishga uslubiy asoslarini ishlab chiqishda muammolarga duch kelishimiz mumkin. Juda ko'plab iqtisodiy ko'rsatkichlarni tahlil qilishga to'g'ri kelishi bilan birga, mamlakat tashqarisidagi iqtisodiy o'zgarishlarni ham e'tibordan qochirmasligimiz va doimiy kuzatuvlarni olib borishimizga to'g'ri keladi. Masalan

strategik ahamiyatga ega bo'lgan maxsulotlar (neft, gaz, paxta va boshqalar)ning jahon bozoridagi narxida kuzatiladigan o'zgarishlariga e'tibor qaratishimiz lozim.

Davlat byudjetining rejalashtirish boshqa turdagi rejalashtirishdan quyidagi jihatlar bilan farqlanadi:

- sonli xususiyatga ega ekanligi;
- ierarxik munosabatlarning mavjudligi;
- nazorat funksiyasining mavjudligi;
- byudjet munosabatlaridan foydalanish huquqi;
- xarajatlarni daromadlarga nisbatan birinchi navbatda tutilishi.

Sonli xususiyati: byudjet o'zi bilan birga resurslarni taqsimlash metodikalari va ko'sratkichlarining raqamlar orqali ifodalaydi. Barcha raqamlar pul ko'rinishida ifodalanadi. Biroq, hozirgi kunda rejalashtirilayotgan byudjetlarda nafaqat pul ko'rinishida, balki "maqsadga yo'naltirilgan, dasturlashtirilgan byudjetlashtirish" kabi masalalar ham dolzarb bo'lib qoldi. Ya'ni, byudjet mablag'laridan foydalanishdagi samaradorlik va uni qanday natijalarga olib kelishi yoritilishi lozim. O'zbekiston Respublikasi "Byudjet Kodeksi"ning 7-moddasida "Moliya yiliga mo'ljallangan barcha darajadagi byudjetlarni shakllantirish, ko'rib chiqish, qabul qilish va ularni ijrosi hisobini yuritish O'zbekiston Respublikasining milliy valyutasi - sumda amalga oshiriladi" deb yozib qo'yilgan.

Ierarxik munosabatlar: byudjet jarayoning o'zi ierarxik munosabatlar asosida ko'riladi. Ularning loyihasini tuzish, ko'rib chiqish va tasdiqlash jarayonlarida bir-biridan farqli vakolatlarga ega bo'lgan davlat idoralari ishtirok etadi. Suu o'rinda bir yillik byudjetni rejalashtirishda ierarxik munosabatlar yanada murakkablashadi va yaqqolroq namoyon bo'ladi. Masalan, tarmoq, vazirlik va idoralar o'zlarining kelgusi yillarga mo'ljallangan byudjet ko'sratkichlarini va dasturlarini Moliya Vazirligi yoki Vazirlar Maxkamasi oldida himoya qilishi kabi holatlar ierarlik munosabatlarni yuzaga keltiradi.

Nazorat funksiyasi: bu ierarxik munosabatlar bilan uzviy bog'liq tushuncha, ya'ni yuqori turuvchi moliya idoralari byudjet mablag'laridan samarali va maqsadga muvofiq foydalanilganligi to'g'risida doimiy nazorat olib boriladi. O'rta

muddatlar uchun qabul qilingan byudjetlar ijrosida har yili yakuni bo'yicha dasturlarni qanday hamda qay darajada bajarilganligi ham tahlil qilinadi. Shunga ko'ra, kelgusi yil byudjeti shakllantiriladi.

Bundan tashqari, respublika hisob palatasi ham byudjet loyihasini va o'tgan yildagi (yoki joriy yildagi) ijrosi nazoratini olib boradi.

Byudjet mablag'laridan foydalanish huquqi amaldagi qonunchilika asosan byudjet mablag'lari oluvchilari o'ziga yuklatilgan vazifalarni amalga oshirish uchun tasdiqlangan byudjetdan o'ziga ajratilgan mablag'lar doirasida foydalanish huquqiga ega. Xarajatlarni daromadlarga nisbatan birinchi navbatda nazarda tutilishi mazkur tushuncha davlatning o'z vazifalarini amalga oshirish uchun bir qancha xarajatlarni amalga kelib chiqadi. Keyingi yillarda jahonning ko'pgina mamlakatlarida byudjet defitsitining ko'payib ketganligi ham fikrimizga misol bo'la oladi.

Mahalliy byudjetlarda byudjet mablag'larini samarali ishlatishda quyidagi tadbirlarni amalga oshirish mumkin:

- byudjet tashkilotlarida kommunal xizmatlar bo'yicha limitlar nazoratini ta'minlash;
- mahalliy byudjetdan moliyalashtiriladigan tashkilot va muassasalarda mehnatga haq to'lashni tahlil qilish;
- mahalliy byudjetdan moliyalashtiriladigan byudjet tashkilotlari va ulardagi xizmatchilarini sonini qisqartirish bo'yicha inventarizatsiya o'tkazish.

Mahalliy byudjet ijrosining nazorati jarayonida hozirgi kunda quyidagi muammolar ko'zga tashlanmoqda:

- mahalliy byudjet ijrosi jarayonida mahalliy hokimiyat vakillarining asossiz aralashuvi;
- mahalliy byudjet ijrosi ustidan nazorat qiluvchi vakolatli organlarning bir-birlari bilan axborot almashmasligi va o'tkazilayotgan tekshirishlar ketma-ket bo'lib bir-birini takrorlayotganligi;

- byudjet muassasalari tomonidan xarid qilinayotgan tovar moddiy boyliklar va oziq-ovqat mahsulotlarining joriy vaqtdagi bozor narxlaridan bir necha baravar qimmat narxlarda xarid qilinayotganligidir.

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida amalga oshirilayotgan iqtisodiy o'zgarishlarni ta'minlashdagi jarayonlar, jumladan, byudjet ijrosini qat'iy ta'minlashda byudjetdan birinchi darajali ustuvor ijtimoiy xarajatlarni moliyalashtirish va ulardan maqsadli, samarali foydalanishda byudjet intizomini mustahkamlash borasida olib borilayotgan ishlar bilan bir qatorda yechimini kutayotgan muammolar ham mavjud.

Shu o'rinda o'rta muddatli byudjetni rejalashtirishning ahamiyatini ko'rishimiz mumkin. Sababi, bir yillik byudjetlarda amaldagi soliq stavkalarini birdaniga oshirib yoki kamaytirib bo'lmaydi. Bu davlat byudjetining daromadlariga salbiy ta'sir qilishi bilan birga soliq to'lovchilarning ham noroziligiga olib kelishi mumkin. Davlatning shunday xarajatlari borki, uni bir yilda mavjud imkoniyatlar doirasida amalga oshirishning imkoni bo'lmaydi. Huddi shu yerda byudjetning o'rta muddatga rejalashtirishning ahamiyati ko'rinadi. Ya'ni, davlat tomonidan qabul qilingan yillik dasturlarni ijro etish xarajatlari bunga misol bo'lishi mumkin.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda xulosa qilish mukinki, mahalliy byudjetini belgilangan parametrlar doirasida muvaffaqiyatli ijro etilishi hamda byudjet intizomiga qat'iy amal qilishni ta'minlashda moliyaviy nazorat ishlarini yanada takomillashtirish lozim.

### **3.2. Mahalliy byudjet xarajatlari ijrosini tashkil etishning xorijiy davlatlar tajribasi**

Jahonning rivojlangan mamlakatalarida mahalliy byudjet xarajatlari ijrosining tashkil etilishi bazaviy jihatdan bir-biriga o'xshab ketadi, lekin turli mamlakatlarda ijroning amalga oshirish bosqichlari bo'yicha amalga oshiriladigan ishlar ketma-ketligi yoki talab qilinadigan hujjatlar, amalga oshirish bosqichlari farq qilishi mumkun. Misol uchun mahalliy byudjetning kassa xizmati Yaponiya banki va

uning bo`limlari tomonidan amalga oshiriladi. Vazirliklar va muassasalar ularga belgilangan xarajatlar doirasida Moliya vazirligiga o`zlarining to`lov smetalarini taqdim etadi. Ushbu smeta Moliya vazirligi tomonidan ko`rib chiqiladi va tasdiqlanadi. Ushbu smetalarning nusxasi Yaponiya markaziy bankiga jo`natiladi va shu asosda tegishli operatsiyalar bajariladi. Bazi mamlakatlarda mahalliy byudjet xarajatlari g`aznachilik tasdiqlangan byudjet asosida, byudjet tashkilotlariga resurslar ajratish bilan cheklangan taqdirda, uning roli sust bo`lishi mumkin. Agar g`aznachilikning roli faol bo`lsa, xarajatlarni to`lash majburiyatlarining limitlarini oldindan ko`zda tutilgan mezonlar asosida belgilaydi.

Mahalliy byudjet xarajatlari ijrosini optimallashtirishda g`aznachilikni tashkil etishning asosiy maqsadi shundan iboratki u davlatning moliyaviy resurslarini samarali boshqarishga ta`sir etadi.

Avstraliyada mahalliy byudjet xarajatlari qismi ijrosi byudjetdan mablag` oluvchilarning so`rovi asosida amalga oshiriladi. Mamlakatda byudjetdan mablag` oluvchilarni byudjet majburiyatlarining aniq huquqiy-me`yoriy hujjatlari qabul qilingan bo`ladi, shuningdek, byudjet mablag`larini maqsadli va samarali ishlatishning nazorat usullari mavjud bo`lib, ular tarmoq vazirliklari tomonidan amalga oshiriladi. Avstraliyada davlatning moliya – axborot tizimi faoliyat ko`rsatadi. Bunda byudjetning tayyorlash, uni ijro etish va yig`ilgan tushumlarning hisobini yuritish amalga oshiriladi. Mazkur axborot tizimi orqali G`aznachilik va Moliyaviy departamentlar bo`limlari bilan mustahkam aloqa o`rnatilgan, bundan tashqari, tarmoq departamentlari bilan aloqa bog`langan. Mamlakatda bunday tiziming mavjudligi har doim davlatning moliyaviy resurslari to`g`risidagi tezkor umumiy axborotlarni olish imkonini beradi.

Fransiyada mahalliy byudjetlar xarajatlari ijrosi g`aznachilik tizimi orqali amalga oshiriladi. Fransiyada g`aznachilikning tashkil qilinishi XII-XIV asrlarga to`g`ri keladi, shu paytga kelib, birinchi martda davlat puli va qirolning mulki bir-biridan ajratib olinadi. Harbiy va yirik kapital chiqimlar katta moliyalashtirilishni talab qilganligi sababli tarmoqlangan tizim orqali pulni yig`ish va markazlashtirish extiyoji tug`ildi. XX asrlada g`azna birligi, yani Markaziy bankda yagona g`azna



hisobi tamoyili tarkib topdi, g`aznaning mamuriy tizimi shaklantirildi, unga davlat hisob-kitobi tarmog`i va pul nazorati berildi hamda Moliya vazirligiga bo`ysundirildi.

Davlat bugalterlari byudjet mablag`lari taqsimlovchilarning moliyaviy maslahatchilaridir. Davlat g`aznasi mahalliy byudjet xarajatlarini ijrosida quyidagilarni nazorat qiladi:

- ✓ byudjet mablaglarini taqsimlovchilarning vakolatlarini;
- ✓ kreditlarning mavjudligini;
- ✓ qarz majburiyatlarida ko`rsatilgan muddatlarni;
- ✓ xarajatlarni aniq byudjet tasnifi bo`yicha amalga oshirilishini.

Argentinada qabul qilingan 1992-yilgi “Jamoat sektorini moliyaviy boshqarish va audit haqidagi Qonun”ga asosan g`aznachilik tizimiga tushumlarni yig`ish, jamoat sektoridagi to`lovlar oqimi va naqd aktivlarni saqlash bilan bog`liq agentliklar kiradi. Bu ta`rif g`azna vazifalari ichidan davlat g`aznasi veksellari chiqarishdan tashqari davlat qarzlarini boshqarish vazifasini bajarilmasligini belgilaydi.

Ispaniyada g`aznachilik funksiyalari Moliya kotibining o`rinbosari Kantselyariyasi MK va G`aznachilik bosh direktorati (G`BD) o`rtasida taqsimlangan. Ikkala muassasa ham ikkinchi darajadagi tuzilmaviy strukturalar bo`lib, Moliya vazirligi tasarrufidadir. Mamlakat markaziy bankida G`aznachilikning yagona hisobi mavjuddir. Yagona hisob bo`yicha tushumlar va to`lovlar ustidan nazoratni G`aznachilik bosh direktori amalga oshiradi. Yagona hisobga tushumlar bo`yicha nazorat uning zimmasida bo`lishiga qaramay ba`zi bir soliqsiz daromdlardan tashqari soliqlar yig`ilishida qatnashmaydi. Moliya vazirligi tarkibiga kiruvchi soliq boshqarmasi, bank tizimi orqali soliqlarni yig`adi. Byudjetning xarajatlari bo`yicha g`aznachilik o`zida ayrim xarajatlar bo`yicha to`lovlarni kechiktirish huquqini saqlagan holda, oylik va choraklik to`lovlarni amalga oshirishi bo`yicha majburiy jadvalni tuzadi. Byudjet birliklari tomonidan majburiyatlari olish, tekshirish va to`lash bo`yicha qabul qilingan qarorlar g`aznachilik tomonidan belgilangan tartibda amalga oshiriladi. To`lov

topshiriqnomalari G`aznachilik bosh direktorati tomonidan byudjet ajratmalarini hamda naqd to`lovlar jadvali hisobga olingan holda amalga oshiriladi. Har qanday davlatning qarzlari hajmi, muddati va shartlari G`aznachilik bosh direktorati tomonidan amalga oshiriladi. Har qanday davlatning qarzlari hajmi, muddati va shartlari G`aznachilik bosh direktorati tomonidan amalga oshiriladi. Qimmatli qog`ozlar Markaziy bankning agenti sifatidagi ishtirokida amalga oshiriladi. lekin tashqi yoki boshqa qarz olishlar bevosita G`aznachilik bosh direktorati tomonidan bajariladi. G`aznachilik qimmatli qog`ozlar ikkilamchi bozorini tartibga solishdan keng vakolatlarga egadir.

Ispaniyada davlat axborot tizimi faoliyat ko`rsatadi va unga Moliya vazirligi Kuntselyariyasi mas`uldir. Mazkur axborot tizimi orqali istisnolarsiz barcha davlat operatsiyalari o`tkazishga majburdir. Ushbu tizim byudjet ijrosini olti bosqichda bajaradi: byudjet ajratmalari, majburiyat olish, tekshirish, to`lov talabi, to`lov topshirig`i va haqiqiy mablag` ajratish. Byudjetni tayyorlash ham tizim orqali amalga oshiriladi. Bunda barcha turdagi rasmiy ma`lumotlar shakllantiriladi va barcha turdagi statistik malumotlar tayyorlanadi. Mazkur tizim suhbatli rejimda, aniq vaqt ko`lamida ishlaydi va har qanday ma`lumot tezkor taqdim etiladi. Soha departamentlari va keyingi byudjet oluvchilar bilan ham aloqalar mavjud.

Buyuk Britaniya mahalliy byudjetlarning ijrosini G`aznachilik organlari ta`minlaydi. G`aznachilikning asosiy funksiyasi g`aznachilikning yagona hisobraqami hisoblangan konsolidatsiyalashgan fondagi barcha tushumlarni nazorat qilishdir. Shuningdek, konsolidatsiyalashgan fondan to`langan barcha to`lovlar ham uning nazoratida bo`ladi. G`aznachilik daromadlarni va xarajatlarni balanslashtirish maqsadida har oyda moliya rejasini ishlab chiqadi, bu rejadan qisqa muddatli moliyalashtirishdagi talablarni aniqlashda foydalaniladi.

AQShda ham qolgan mamlakatlarga o`xshab mahalliy federal hududlar moliyasini federal g`aznachilik organlari amalga oshiradi. Tarmoq departamentlari mablag`larni to`g`ri va samarali ishlatilishi bo`yicha nazoratni amalga oshiradi. Barcha xarajatlar tasdiqlangan byudjet parametrlari doirasida byudjetdan mablag`

oluvchilarning so`rovi asosida G`aznachilik tomonidan to`lanadi, bunda cheklardan va elektron pul o`tkazish vositalaridan foydalaniladi.

Rossiya mamlakatida ham federal hududlar moliyasining ijrosini g`aznachilik tarmoqlari ta`minlaydi. Rossiya federatsiyasida 1992-yili federal miqyosida hududiy g`aznachilik tizimi vujudga keldi. Federal g`aznachilik organi Rossiya Federatsiyasi Moliya vazirligi tarkibga kiradi, markazlashgan tizim hisoblanadi va u hududiy tamoyillarga asoslanadi.

Rossiya G`aznachilik tizimi uch bosqichda tashkil topgan. Mahalliy byudjetlar ijrosini taminlovchi bo`limlar uchinchi bosqichdan o`rin egallaydi.

Uchinchi bosqich, Federal g`aznachilik bo`linmalari, shahar, tuman va shahar tumanlari, tumanga qarashli shaharlardan tashqari byudjetdan mablag` oluvchilar tomonidan qilinadigan xarajatlarni maqsadli ishlatilishini ta`minlash va hududlarda federal byudjetning daromadlar qismini shakllantirishni ta`minlaydi. Federal G`aznachilik bo`limlari hududdagi federal byudjetning tushum va xarajatlari ijrosi to`g`risidagi yuqori tashkilotlarga axborot beradi.

Federal byudjet ijrosi Rossiya Federatsiyasi Markaziy banki yoki uning shoxobchalarida ochilgan hisobraqamlarda g`aznachilik organlari tomonidan amalga oshiriladi yoki Rossiya Federatsiyasi moliya vazirligi bilan kelishilgan holda tijorat banklari ham amalga oshiradi. Rossiya Federatsiyasining Byudjet kodeksining 155-moddasida ta`kidlanishicha, Rossiya Markaziy banki muassasalarida g`aznachilik organlarining hisobraqami mavjud. Hududlarda Rossiya Federatsiyasi Markaziy banki muassasalari bo`lmasa, g`aznachilik hisobraqami vakolat berilgan xususiy tijorat banklarida bo`ladi.

Yuqoridagilardan ko`rinib turibiki barcha rivojlangan mamlakatlarda mahalliy byudjet xarajatlari ijrosi tizimi g`aznachilik tizimiga to`laqonli o`tgan va bu tizim o`zining samarasini ko`rsatib kelmoqda. Mahalliy byudjetlar xarajatlari ijrosining samarali tashkil etishda g`aznachilik organlari va nazoratning rolini oshirish katta ahamiyatga ega bo`lib kelmoqda.

### **3-bob bo'yicha xulosalar**

Mahalliy byudjetlarning byudjet tizimida tutgan o'ri va ahamiyati amaldagi byudjet qonunchiligi doirasida ular faoliyatini ta'minlashning huquqiy-me'yoriy va tashqiliy-iqtisodiy asoslari orqali yaqqol namoyon bo'ladi. Biroq mamlakatimizda byudjetlararo munosabatlarning yangi modeli sharoitidagi hamda byudjet-soliq siyosati yaxlitligini ta'minlashdagi davlat tadbirlari va ularning real ijrosi hali bu sohada hal etilishi lozim bo'lgan muammolar mavjudligini tasdiqlamoqda.

G'aznachilikni joriy etish mahalliy byudjetlar xarajatlar qismida byudjet mablag'larining maqsadli sarflanishining nazoratini kuchaytirish imkonini beradi. Mazkur tizimni joriy etish bilan mahalliy byudjetlar xarajatlari ijrosini kuzatish, boshqaruv qarorlarini qabul qilishda qulaylik yaratish, byudjet mablag'larini maqsadsiz sarflanishdan himoyalash imkonini beradi.

Mahalliy byudjet mablag'laridan foydalanish samaradorligini ta'minlash yo'nalishlarini ko'rib chiqqanimizda, takomillashtirish yo'nalishlari, asosan, axborot tizimining rivojlanishi, moliyaviy rejalashtirish va pullarni boshqarish usullarini takomillashtirish bilan bog'liq bo'ladi. Ya'ni, ushbu sohadagi fan-texnika taraqqiyoti hamda ijtimoiy joyalarni rivojlanishi bilan birgalikda yuksalib boraveradi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, mahalliy byudjet xarajatlarini ijrosining takomillashtirishning asosiy maqsadlari quyidagilardan iborat:

- davlat byudjeti mablag'larini samarali boshqarish;
- mahalliy byudjet mablag'laridan maqsadli foydalanish ustidan nazoratni yanada kuchaytirish;
- mahalliy byudjet xarajatlari ijrosini ta'minlash sifatini oshirish.

Yuqoridagi bobda ko'rib o'tdikki barcha rivojlangan mamlakatlarda mahalliy byudjet xarajatlari ijrosi tizimi g'aznachilik tizimiga to'laqonli o'tgan va bu tizim oqzining samarasini ko'rsatib kelmoqda. Mahalliy byudjetlar xarajatlari ijrosining samarali tashkil etishda g'aznachilik organlari va nazoratning rolini oshirish katta ahamiyatga ega bo'lib kelmoqda.

## XULOSA

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida islohotlarning tobora chuqurlashib borishi har bir iqtisodiy jarayonni chuqur tahlil qilishni taqozo qilmoqda. Mahalliy byudjet xarajatlarini samaradorligini oshirish muammolari belgilangan parametrlar doirasida xarajatlarni amalga oshirish, byudjetlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni shakllantirish, byudjet mablag'lari bilan amalga oshiriladigan operatsiyalarning hisobini yuritishda katta ahamiyat kasb etadi.

Bitiruv malakaviy ishim bo'yicha bajargan ilmiy izlanishlarim natijasida quydagi xulosalarga kelindi:

1. Mahalliy byudjet xarajatlari, mahalliy xarajatlarni tashkil etishga oid tamoyillar, mablag'larni maqsadli taqsimlash, tejamkorlik rejimiga qat'iy amal qilish, davlat moliya-byudjet intizomiga amal qilinishiga erishish maqsadida samarali moliyaviy nazorat tizimiga ega bo'lish lozim. Jumladan, byudjet jarayonini mavjud qonunchilik asosida, byudjet ijrosini belgilangan parametrlar doirasida ijro etish, byudjetdan mablag' bilan ta'minlashni takomillashtirish hamda mablag'lardan samarali va maqsadli foydalanish, byudjet intizomini ta'minlash byudjet tizimi oldida turgan muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Ushbu maqsad va vazifalarni amalga oshirish byudjet jarayonlarida mablag'larni maqsadli taqsimlash, mablag'lardan eng yuqori samaraga olinishiga erishiladigan holda foydalanish va tejamkorlik hamda moliya-byudjet intizomini ta'minlash va uni nazorati orqali erishish mumkin bo'ladi.

2. Hozirgi iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida eng muhim vazifa qilib byudjetlarning qat'iy bajarilishi ustidan doimiy nazoratni, moliya qonunchiligiga rioya etilishi va byudjet intizomini ta'minlash, mahalliy byudjet xarajatlarning samaradorligini oshirish, mavjud mablag'larni oqilona taqsimlash, ijtimoiy xarajatlarning aniq maqsadli va egali bo'lishiga erishishdan iborat.

3. Mahalliy byudjet mablag'laridan belgilangan maqsadda foydalanishini nazorat qilish, shuningdek, ijtimoiy-madaniy tadbirlarga ajratilgan byudjet mablag'laridan foydalanish dastur asosida aniq ro'yxatli bo'lishini, byudjetdan mablag' oladigan byudjet muassasalarini moliyalashtirish mexanizmini

soddalashtirish, bu bilan byudjet mablag`laridan foydalanish hisobini yuritish nazoratini ta`minlanishini taqozo etadi.

4. Berilgan vazifalarni amalga oshirish byudjet siyosatini to`g`ri yuritish mahalliy byudjet mablag`laridan samarali, oqilona foydalanishni talab etadi. Byudjet dasturlarining aniq va o`z vaqtida bajarilishi ayni paytda davlat dasturlarining ham pirovard natijada ijobiy bajarilishini ta`minlaydi. Mahalliy byudjet mablag`laridan oqilona foydalanishga esa samarali nazorat tizimini shakllantirmasdan turib erishib bo`lmaydi.

5. G`aznachilik tizimini joriy etilish orqali mahalliy byudjet xarajatlarini samarali ijrosini ta`minlashda yuqori ko`rsatkichlarga ega bo`lindi. Mahalliy byudjet xarajatlari iqtisodiy guruhlashning har bir bosqichi bo`yicha aniq belgilab berilishi lozim. Byudjet sifat jihatdan mana shunday mukammal ishlab chiqilganda va unda baxsli holatlar va e`tirozga asos bo`lmaganda, byudjet mablag`larining noto`g`ri foydalanilishini oldini olish oson bo`ladi.

6. G`aznachilik tizimi davlat moliyasini samarali boshqarish uchun ham, undan oqilona foydalanilishi ustidan qat`iy nazoratni ta`minlash uchun ham zamin yaratadi. Buni esa quyidagicha izohlash mumkin: birinchidan, g`aznachilik mahalliy byudjetining ijrosi jarayonida yuzaga keladigan daromad va xarajatlarni o`z hisobvaraqlarida jamlaydi. Ikkita qarama-qarshi moliyaviy oqimlarning bitta organda jamlanishi ushbu jarayonni sezilarli darajada tezlashtiradi.

7. Mahalliy byudjetlarda byudjet mablag`larini samarali ishlatishda quyidagi tadbirlarni amalga oshirish mumkin:

- byudjet tashkilotlarida kommunal xizmatlar bo`yicha limitlar nazoratini ta`minlash;
- mahalliy byudjetdan moliyalashtiriladigan tashkilot va muassasalarda mehnatga haq to`lashni tahlil qilish;
- mahalliy byudjetdan moliyalashtiriladigan byudjet tashkilotlari va ulardagi xizmatchilarini sonini qisqartirish bo`yicha inventarizatsiya o`tkazish.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

### **1. O'zbekiston Respublikasi Qonunlari, Prezident Farmonlari va qarorlari, Vazirlar Mahkamasi qarorlari:**

- 1.1. O'zbekiston Respublikasining "Byudjet kodeksi". –T.: 2013 y.
- 1.2. O'zbekiston Respublikasining "Soliq kodeksi". –T.: "Norma", 2008 y.
- 1.3. O'zbekiston Respublikasining "Bojxona kodeksi". – T.: "O'zbekiston", 2016 y.
- 1.4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 22-dekabrdagi - "O'zbekiston Respublikasining 2016-yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va Davlat byudjeti parametrlari to'g'risida"gi PQ-2455–sonli Qarori.
- 1.5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002-yil 26-apreldagi 144-sonli "Davlat moliyasini boshqarishni isloh qilish loyihasini amalga oshirishga tayyorlanish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori.
- 1.6. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2007- yil 20-martdagi "O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining G'aznachiligi to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash haqida"gi 53-sonli Qarori.

### **2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari:**

- 2.1. O'zbekiston Prezidenti Islom Karimovning mamlakatimizni 2015-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2016-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi. //“Xalq so'zi”, 2015-yil 16-yanvar
- 2.2. O'zbekiston Prezidenti Islom Karimovning mamlakatimizni 2014-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2015-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi.// “Xalq so'zi”, 2015-yil 17-yanvar
- 2.3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning 2013-yilda Respublika ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari hamda 2014-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi. //“Xalq so'zi”, 2014-yil 18-yanvar.

2.4. O`zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning 2012-yilda Respublika ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari hamda 2013-yilga mo`ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo`nalishlariga bag`ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma`ruzasi. “Xalq so`zi”, 2013-yil 20-yanvar.

2.5. Karimov I.A.: “2012-yil Vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko`taradigan yil bo`ladi”. – T.: “O`zbekiston”, 2012.

2.6. Karimov I.A.: “Barcha reja va dasturlaimiz Vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga hizmat qiladi”. – T.: “O`zbekiston”. 2011.

2.7. Karimov I.A.: “Asosiy vazifamiz – vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir”. – T: “O`zbekiston”. 2010.

2.8. Karimov I.A. “Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O`zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo`llari va choralari”. – T.: “O`zbekiston”, 2009

2.9. Karimov I.A.: “Inson manfaatlari ustuvorligini ta`minlash – barcha islohot va o`zgarishlarimizning bosh maqsadidir”. – T.: “O`zbekiston”, 2008.

2.10. Karimov I.A.: “O`zbekiston mustaqillika erishish ostonasida”. – T.: “O`zbekiston”, 2012.

2.11. Karimov I.A.: “Bank tizimi, pul muomalasi, kredit, investitsiya va moliyaviy barqarorlik”. – T.: “O`zbekiston”, 2005.

2.12. I.Karimov: “O`zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura”. – T.: “O`zbekiston”. 1996.

### **3. Asosiy adabiyotlar:**

3.1. Vahobov A.V., Malikov T.S.: “Moliya”, darslik. –T.: “Noshir”, 2012.

3.2. Srojiddinova Z.X.: “O`zbekiston Respublikasi byudjet tizimi”, darslik. – T.: “Incom.uz”, 2010.

3.3. Jo`raev A.: “Davlat byudjeti daromadlarini shakllantirishning samarali yo`llari”. -T.: “Fan”. 2004.

3.8. Vahobov A.: “Byudjet-soliq siyosati yaxlitligi”, o`quv qo`llanma. -T.:



“Iqtisod-moliya”, 2005.

3.9. Malikov T.S., Jalilov P.T.: “Byudjet-soliq siyosati”, darslik. – T.: “Akademnashr”, 2011.

3.10. Malikov T., Haydarov N.: “Byudjet daromadlari va xarajatlari”, o`quv qo`llanma. –T.: “Iqtisod-moliya”, 2007.

3.11. Qosimova G.A.: “Mahalliy byudjetlarni tuzish va ijrosini ta`minlash”, o`quv qo`llanma. – T.: “Fan va texnologiyalar”, 2007.

3.12. Malikov T., Haydarov N., “Byudjet: tizimi, tuzilmasi, jarayoni” O`quv qo`llanma. –T.: “Iqtisod-moliya”, 2008.

3.13. Vahobov A., Malikov T.: “Moliya: umumnazariy masalalar”, o`quv qo`llanma. –T.: “Iqtisod-moliya”, 2008.

3.14. Qosimova G.A. “Davlat byudjeti ijrosining g`aznachilik tizimi”, o`quv qo`llanma. –T.: “Iqtisod-moliya”, 2008.

3.15. Malikov T. Haydarov N.: “Moliya: umumdavlat moliyasi”, o`quv qo`llanma. –T.: “Iqtisod-moliya”, 2009.

3.16. Vahobov D., Rajabov Sh.: “Moliya”, o`quv qo`llanma. –T.: “Iqtisod-moliya”, 2009.

#### **4. Qo`shimcha adabiyotlar:**

4.1. A.Vohobov, Z.Srojiddinova, O`zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti. O`quv qo`llanma. – Toshkent: “Iqtisod-moliya”, 2002 yil.

4.2. O`lmasov A., Sharifxo`jaev M. Iqtisodiyot nazariyasi. T.: “Mehnat”, 1995.

4.3. Eshnazarov T.: “G`aznachilik tizimi munosabatlari”. – T.: “Fan”, 2008.

4.4. Qosimova G.A.: “G`aznachilik faoliyatini tashkil qilish”, o`quv qo`llanma. -T.: I`qtisod-moliya”, 2005.

4.5. Акперов И.Г.:”Казначейская система исполнения бюджета в Российской Федерации”. -М.: “Финансы и статистика”, 2002.

4.6. Иванова Н.Т., Маковник Т.Д.: “Казначейская система исполнение бюджетов”. – СПб.: “Питер”, 2001.

4.7. Malikov T., Xaydarov N.: “Byudjet (tizimi, tuzilmasi, jarayoni)”, o`quv qo`llanma. -T.: “Iqtisod-moliya”, 2008.

4.8. B.Y.Xodiyev, A.Sh.Bekmurodov, U.V.G`afurov: O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning “Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish–ustuvor maqsadimizdir” hamda “Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir” nomli ma`ruzalarini o`rganish bo`yicha o`quv-uslubiy majmua. – T.: “Iqtisodiyot”, 2010.

## **5. Davriy nashrlar, statistik hisobotlar va to`plamlar:**

5.1. M.Xusainov: “Mahalliy byudjetni balansli rejalashtirish”, “MOliya”. №3-4, 2011.

5.2. Abruyev U.: “Davlat byudjetining g`azna ijrosi xalqaro tajribasi va g`azna ijrosining O`zbekistondagi o`ziga xos xususiyatlari. “Soliq solish va bugalteriya hisobi”, №11 (29) son, 2008-yil.

5.3. H.Musaev: “G`aznachilik tizimi mohiyati va uning samaradorligini oshirish yo`llari”. “Bozor, pul va kredit”, 2007-yil, № 12.

5.4. T.Eshnazarov: “Davlat moliyasi islohi: Fransiya tajribasi”, “Iqtisod va hayot”, 2007.

5.5. G.Qosimova: “G`aznachilik tizimidagi yangiliklar”, “Jamiyat va boshqaruv”, 2007-yil, №2.

5.6. “Moliya” ilmiy jurnal sonlari.

5.7. O`zbekiston Respublikasi Davlat Statistika Qo`mitasining yillik hisobotlari.

## **6. Internet saytlari:**

6.1. [www.lex.uz](http://www.lex.uz) - O`zbekiston Respublikasi qonunlari bazasi sayti.

6.2. [www.mf.uz](http://www.mf.uz) - O`zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi sayti.

6.3. [www.soliq.uz](http://www.soliq.uz) - O`zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo`mitasi sayti.

6.4. [www.stat.uz](http://www.stat.uz)- O`zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo`mitasi sayti.

6.5. [www.gov.uz](http://www.gov.uz) – O`zbekiston Respublikasi Hukumat sayti.